



# Xalq so'zi

O'zbekiston —  
kelajagi  
buyuk  
davlat

2024-YIL — YOSHLAR VA BIZNESNI QO'LLAB-QUVVATLASH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2024-yil 20-yanvar, № 15-16 (8638-8639)

Shanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI DAVLAT TASHRIFI BILAN XITOYDA BO'LADI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Xitoy Xalq Respublikasi Raisi Si Zinpingning taklifiga binoan 23 — 25-yanvar kunlari davlat tashrifi bilan ushbu mamlakatda bo'ladi.

Tashrif dasturiga muvofiq Pekin shahrida oliy darajadagi muzokaralar hamda qator ikki tomonlama uchrashuvlar bo'lib o'tadi.

Kun tartibidan O'zbekiston bilan Xitoy o'rtasidagi har tomonlama strategik sheriklik munosabatlarini yanada mustahkamlash va keng ko'lami amaliy

hamkorlikni kengaytirish masalalari o'rin olgan. Shuningdek, davlatimiz rahbari Xitoy hududlaridan biriga tashrif buyurib, ushbu mamlakat yetakchi kompaniyalari va bank-moliya institutlari rahbarlari bilan uchrashuv o'tkazadi.

O'ZA.



## O'zbekiston Respublikasining QONUNI

### Yo'l harakati to'g'risida

Qonunchilik palatasi tomonidan 2023-yil 31-yanvarda qabul qilingan  
Senat tomonidan 2023-yil 27-oktabrda ma'qullangan

#### 1-bob. Umumiy qoidalar

#### 1-modda. Ushbu Qonunning maqsadi

Ushbu Qonunning maqsadi yo'l harakati sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

#### 2-modda. Yo'l harakati to'g'risidagi qonunchilik

Yo'l harakati to'g'risidagi qonunchilik ushbu Qonun va boshqa qonunchilik hujjatlaridan iboratdir.

Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O'zbekiston Respublikasining yo'l harakati to'g'risidagi qonunchiligida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi.

#### 3-modda. Yo'l tushunchasi

Transport vositalari va piyodalar harakatlanishi uchun jihozlangan, moslashtirilgan hamda transport vositalari va piyodalarning harakat xavfsizligini ta'minlashga mo'ljallangan yo'l obyektlari majmuasini joylashtirish uchun ajratilgan yer uchastkalari hamda yer uchastkalari ustidagi bo'shliq yo'lidir.

Yo'llar umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llariga (bundan buyon umumiy foydalanishdagi yo'llar deb yuritiladi), tumanlar (shaharlar), shaharchalar, qishloqlar va ovullarning ko'chalariga, xo'jalik yo'llariga, shahar elektr transporti yo'llariga, velosiped va piyodalar yo'lklariga ajratiladi.

Qishloq joylardan o'tadigan va xo'jaliklarni o'zaro bog'laydigan yo'llar xo'jaliklararo qishloq yo'llaridir.

#### 4-modda. Asosiy tushunchalar

Ushbu Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

**yo'l obyektlari** — yo'lning konstruktiv elementlari bo'lgan yo'l sun'iy inshootlari (ko'priklar, yo'l o'tkazgichlar, osma ko'priklar, quvurlar, tunnellar va boshqa muhandislik inshootlari), himoya qilish inshootlari (yo'llarni qor ko'chkilardan, yer cho'kishidan, yer cho'chkilardan himoya qilish qurollari va boshqa qurollari), shuningdek yo'llarni jihozlash elementlari (to'xtash maydonchalari, yo'lovchilar uchun pavilyonlar, dam olish maydonchalari, transport vositalarining to'xtab turish joylari va boshqalar);

**yo'l egasi** — yo'l qaysi korxonalar, muassasalar, tashkilotlar yoki jismoniy shaxslar ixtiyorida bo'lsa, o'sha korxonalar, muassasalar tashkilotlari yoki jismoniy shaxslar;

**yo'l harakati** — yo'l harakatini tashkil etishda yo'llar doirasida transport vositalari va yo'l harakati ishtirokchilari ishtirokida yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlar majmui;

**yo'l harakati ishtirokchisi** — yo'l harakati jarayonida transport vositasining haydovchisi, yo'lovchisi yoki piyoda sifatida bevosita ishtirok etayotgan shaxs;

**yo'l harakati monitoringi** — yo'l harakatini tashkil etishning asosiy ko'rsatkichlari to'g'risidagi hamda yo'l harakatini tashkil etishning texnik vositalari holati haqidagi axborotni hisobga olish, umumlashtirish, unga ishlov berish va uni tahlil qilish;

**yo'l harakatini tashkil etish** — yo'l harakatini boshqarish hamda yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash bo'yicha tashkiliy-huquqiy, tashkiliy-texnik tadbirlar va boshqaruv harakatlari majmui;

(Davomi 2, 3, 4, 5-betlarda.)

## ASRLARGA TUTASHGAN O'ZARO BOG'LIQLIK ZAMONAVIY HAMKORLIKNING MUVAFFAQIYATLI OMILI

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 23 — 25-yanvar kunlari davlat tashrifi bilan Xitoyda bo'ladi.

O'zbekiston — Xitoy hamkorligining zamonaviy bosqichi 1992-yil 2-yanvarda, O'zbekiston mustaqillikka erishgach, xalqaro hamjamiyatning to'la huquqli a'zosi sifatida Xitoy Xalq Respublikasi bilan diplomatik munosabatlar o'rnatgan onlardan boshlandi.

Ikki davlat o'rtasidagi aloqalarning tarixiy ildizlari uzoq asrlarga borib taqaladi va bugungi kunda samarali, o'zaro manfaatli sheriklikni rivojlantirish uchun mustahkam poydevor bo'lib xizmat qilmoqda. Mintaqalarni bog'lab turgan, o'zaro hamkorlik va madaniy almashinuvga turki bo'lgan qadimiy Buyuk Ipak yo'li ayni paytda yangicha ahamiyat kasb etib, o'z navbatida, mamlakatlar va xalqlar o'rtasida iqtisodiy, madaniy va gumanitar ko'priklar bo'lib xizmat qilishda davom etayotir.

### Tashrif oldidan

Bugungi kunda O'zbekiston va Xitoyning xalqaro kun tartibidagi dolzarb masalalar, global xavfsizlik va taraqqiyotni ta'minlash bo'yicha pozitsiya va yondashuvlari o'xshash. Xitoy O'zbekistonning mustaqil

taraqqiyot yo'lini, mamlakatimizda Prezident Shavkat Mirziyoyev rahnamoligida amalga oshirilayotgan keng ko'lami islohotlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlab kelmoqda.

Ikki davlat BMT, Shanxay hamkorlik tashkiloti, "Markaziy Osiyo — Xitoy" formati va boshqa ko'p tomonlama xalqaro tuzilmalar doirasida ham yaqin aloqalarni mustahkamlagan holda umumiy manfaatlarni himoya qilib, butun dunyoda xavfsizlik va taraqqiyotga erishishga ijobiy hissa qo'shmoqda.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, O'zbekiston va Xitoy SHHTni tashkil etishda faol qatnashgan va har ikki tomonning ilgari surilgan tashabbus va takliflarini amalga oshirishda bir-birini qo'llab-quvvatlab kelaypti.

O'zbekiston va Xitoy munosabatlarining zamonaviy rivojlanishida davlatlarimiz rahbarlari o'rtasida o'rnatilgan ishonchli va yaqin do'stona muloqot muhim rol o'ynamoqda.

So'nggi yetti yilda O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va XRR Raisi Si Zinping ko'p tomonlama sammitlarda uchrashdi, ikki mamlakat rahbarlarining o'zaro davlat, rasmiy va amaliy tashriflari bo'lib o'tdi, qator telefon muloqotlari amalga oshirildi.

XRR Raisi Si Zinpingning 2022-yil sentabrdagi O'zbekistonga tashrifi, shuningdek, Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil va 2023-yil may oylarida Xitoyga buyurgan davlat tashriflari ikki tomonlama munosabatlar rivojida kuchli turki bo'ldi.

Yuqori darajadagi o'zaro aloqalar ham sheriklikning dinamikasi va barqarorligi bilan ajralib turibdi. Parlamentlararo hamkorlik faollashdi. 2017-yil may oyida Oliy Majlis va Butunxitoy Xalq vakillari kengashi o'rtasida hamkorlik bo'yicha parlamentlararo guruh tuzildi. Samarali parlamentlararo muloqot davom etmoqda, parlament delegatsiyalarining o'zaro tashriflari almashilyapti.

## O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining qirq to'qqizinchi yalpi majlisi to'g'risida AXBOROT

19-yanvar kuni Toshkent shahrida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining qirq to'qqizinchi yalpi majlisi o'z ishini boshladi.



Unda Senat, hukumat a'zolari, vazirlik va idoralarning vakillari, Senat huzuridagi Yoshlar parlamenti a'zolari hamda ommaviy axborot vositalari xodimlari qatnashdi.

Videokonferensaloqa tarzida o'tkazilgan yalpi majlisi O'zbekiston Respublikasi Oliy

Majlisi Senati Raisi Tanzila Norboyeva olib bordi.

Yalpi majlis Senatning "YouTube" tarmog'idagi sahifasi orqali to'g'ridan-to'g'ri yoritib borildi. Senatning qirq to'qqizinchi yalpi majlisida

distlab Oliy Majlis Senatining 2023-yildagi faoliyati yakunlariga bag'ishlangan masala atroficha ko'rib chiqildi.

Ta'kidlanganidek, o'tgan yil davomida Senat Konstitutsiya va qonunlarda belgilangan vakolatlari, shuningdek, 2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida aks etgan ustuvor yo'nalishlardan kelib chiqib faoliyat yuritdi.

Jumladan, qonunchilik faoliyatini takomillashtirish, parlament nazoratini kuchaytirish, xalqaro va parlamentlararo munosabatlarni kengaytirish, mahalliy Kengashlar faoliyatiga ko'maklashish, xalq bilan muloqot samaradorligiga erishishda parlament ta'sirini oshirish bo'yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Qayd etish joizki, o'tgan yilda milliy taraqqiyotimizning ustuvor yo'nalishlarini qamrab olgan hamda inson qadri degan ulug'vor tamoyilni o'zida jamlagan yangilangan Konstitutsiya qabul qilindi.

## LONDONDA "YANGI O'ZBEKISTON — YANGI IMKONIYATLAR, TARAQQIYOT YO'LIDA IJTIMOIY HAMKORLIK" MAVZUIDA XALQARO ANJUMAN O'TKAZILADI

O'zbekiston elchisi Ravshan Usmonov Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (YETTB) bosh kotibi Kazuxiko Koguchi bilan uchrashuv o'tkazdi.

Muloqot davomida O'zbekistonning YETTB bilan moliyaviy va sarmoyaviy hamkorligini kengaytirishga alohida e'tibor qaratildi. So'nggi yillarda birgalikda keng ko'lami dastur va loyihalar amalga oshirilganligi qayd etildi.

### Biz va jahon

Shuningdek, tomonlar O'zbekiston va YETTB o'rtasidagi munosabatlarga yangi dinamika berishga qaratilgan istiqboldagi vazifalarni muhokama qildilar.

Bosh kotib Kazuxiko Koguchi YETTB hozirgi kunda yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko'lami demokratik va ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni yuksak baholash va har tomonlama qo'llab-quvvatlashini bildirdi.

"Bankning O'zbekistondagi faoliyati davlat korxonalar va banklarini o'zgartirish va xususiy lashtirish, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, "yashil" rivojlanish, energetika va transport loyihalarini qo'llab-quvvatlash, shuningdek, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini joriy etish hamda ayollar va

yoshlar tadbirkorligi dasturlarini rivojlantirishga qaratilgan", dedi Koguchi.

Uchrashuvda, shuningdek, joriy yil 25-26-yanvar kunlari London shahrida YETTB bilan hamkorlikda tashkil etilayotgan "Yangi O'zbekiston — yangi imkoniyatlar, taraqqiyot yo'lida ijtimoiy hamkorlik" mavzuidagi xalqaro anjumann yuqori darajada o'tkazish masalalari xususida ham fikr almashildi.

Muloqot yakunida tomonlar ko'rib chiqilgan yo'nalishlarda o'zaro hamkorlikni kengaytirish bo'yicha mavjud salohiyatni ro'yobga chiqarish maqsadida diplomatik aloqalarni davom ettirishga kelishib oldi.

Eslatib o'tamiz, bugungi kunga qadar YETTB O'zbekiston bo'ylab 146 ta loyihaga salkam 4,5 milliard yevro sarmoya kiritgan.

"Dunyo" AA.  
London

### Qonunchilik palatasi qo'mitasida

## MILLIY QADRIYATLAR RUHIDA TARBIYA TOPGAN YETUK KADRLAR SUV BILAN HAVODEK ZARUR

Kecha Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Fan, ta'lim, madaniyat va sport masalalari qo'mitasi hamda Yoshlar masalalari bo'yicha komissiya tashabbusi bilan "Yangi O'zbekiston taraqqiyotining ma'naviy-ma'rifiy islohotlarida ziyolilarning o'rni" mavzuida tadbir o'tkazildi.

Parlament quyi palatasi deputatlari, Yoshlar parlamenti a'zolari, madaniyat va adabiyot sohasi vakillari hamda jurnalistlar ishtirok etgan tadbirida keyingi yillarda mamlakatimizda milliy madaniyatni yanada rivojlantirish, O'zbekistonning yangi tarixini yaratish, moddiy va nomoddiy madaniy meros durdonalarini saqlash va targ'ib qilish, xalq og'zaki ijodiyoti va havaskorlik san'atini yanada ommalashtirish, yurtimizning jahon madaniy makoniga faol integratsiyalashuvini ta'minlashga qaratilgan tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilayotgani ta'kidlandi.

Xususan, "Madaniy faoliyat va madaniyat tashkilotlari to'g'risida"gi qonun qabul qilinib, unda madaniy faoliyat sohasidagi davlat siyosatining

asosiy yo'nalishlari belgilab berilgan alohida e'tirof etildi. Milliy an'analarimizni asrab-avaylash va boyitish maqsadida Maqom, Baxshichilik va Askiya san'ati markazlari tashkil qilingani, "Bahor" raqs ansambli, O'zbekiston davlat filarmoniyasi va davlat simfonik orkestri kabi 20 dan ortiq muassasalar faoliyati yo'lga qo'yilgani qayd etildi.

Deputatlar sohada olib borilayotgan ishlariga to'xtalib, mamlakatimiz Prezidenti raisligida o'tgan yil 22-dekabr kuni o'tkazilgan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining kengaytirilgan yig'ilishida ilgari surilgan tashabbuslar, soha rivojiga qaratilgan aniq rejalar ma'naviy-ma'rifiy ishlarni sifat va mazmun jihatdan yangi bosqichga ko'tarishga xizmat qilishini alohida ta'kidladilar.

(Davomi 6-betda.)

8

O‘zbekiston Respublikasining QONUNI

# Yo‘l harakati to‘g‘risida

(Davomi. Boshlanishi 1-betda).

**yo'l harakatini tashkil etish loyihalarining auditi** – tashkilotlarning yo'llarni loyihalashtirish (loyihalash tashkilotidan mustaqil ravishda), qurish, rekonstruksiya qilish, ta'mirlash va ulardan foydalanish chog'idagi faoliyati natijalarining yo'l harakatini tashkil etish bo'yicha normativ-texnik hujjatlarining amaldagi talablariga muvofiqligini tekshirish;

**yo'l harakatini tashkil etishning texnik vositalari** – yo'l harakatini tashkil etish uchun mo'ljallangan qurilmalar va inshootlar (yo'l belgilari, harakatlanish polosalari, svetoforlar, millitlovchi mayoqchalar, yo'l chiziqlari, yo'l ustunlari, to'siqlari, tezlikni cheklovchi qurilmalar, shlagbaumlar, xavfsizlik orolchalari, yo'l harakatini avtomatik boshqarish tizimlari (vositalari), shuningdek boshqa qurilmalar va inshootlar);

**yo'l harakati xavfsizligi** – yo'l harakati ishtirokchilarining yo'l-transport hodisalari va ularning oqibatlaridan himoyalanganlik darajasini aks ettiruvchi yo'l harakati holati;

**yo'lning o'tkazuvchanlik qobiliyati** – yo'lning muayyan uchastkasidagi bir yo'nalishda transport vositalari harakatlanishi jadalligining eng yuqori ko'rsatkichi;

**yo'l-transport hodisasi** – transport vositasining yo'lda harakatlanishi jarayonida va uning ishtirokida sodir bo'lgan, fuqarolar vafot etgan yoki ularning sog'lig'iga zarar yetkazilgan, transport vositalari, inshootlar, yuklar shikastlangan yoxud boshqa moddiy zarar yetkazilgan hodisa;

**temir yo'l kesishmasi** – yo'lning temir yo'llar bilan bir sathda kesishgan joyi;

**transport vositasi** – yo'lovchilarning, bagajning, yuk bagajining, yuklarning, pochta va kuryelik jo'natmalarining yoki maxsus ishlarni amalga oshirish uchun uskunalarining yo'llarda harakatlanishi yoki tashilishi uchun mo'ljallangan qurilma;

**transport vositalarining to'xtab turish joylari (bundan buyon matnda to'xtab turish joylari deb yuritiladi)** – transport vositalarini vaqtincha yoki doimiy saqlash uchun mo'ljallangan, yo'lning kengaytirilib qatnov qismidan ajratilgan uchastkasi, bino, inshoot (ularning bir qismi), maxsus ochiq maydoncha;

**haydovchi** – transport vositasini boshqaruvchi shaxs. Transport vositasini boshqarish o'rgatilayotganda o'rgatuvchi shaxs haydovchi deb hisoblanadi.

## 5-modda. Yo'l harakati sohasidagi asosiy prinsiplar

Yo'l harakati sohasidagi asosiy prinsiplar quyidagilardan iborat:

- qonuniylik;
- tizimlilik;
- ilmiylik;
- ochiqlik va oshkoralik;
- fuqarolar hayoti va sog'lig'i muhofaza qilinishining ustuvorligi;
- ekologik xavfsizlikning va atrof-muhit muhofaza qilinishining ustuvorligi;
- mahalliy aholi va yo'l harakati ishtirokchilari fikrining inobatga olinishi.

## 2-bob. Yo'l harakati sohasini tartibga solish

## 6-modda. Yo'l harakati sohasidagi davlat boshqaruvi

Yo'l harakati sohasidagi davlat boshqaruvi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, mahalliy davlat hokimiyati organlari va yo'l harakati sohasidagi maxsus vakolatli davlat organlari tomonidan amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi va uning tasarrufidagi tashkilotlar, O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Jamoat xavfsizligi departamentining Yo'l harakati xavfsizligi xizmati, Qoraqalpog'iston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, Toshkent shahar va Toshkent viloyati ichki ishlar bosh boshqarmalari, viloyatlar ichki ishlar boshqarmalari jamoat xavfsizligi xizmatining yo'l harakati xavfsizligi boshqarmalari, shuningdek tuman (shahar) ichki ishlar bo'limlari (ichki ishlar organlari faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmalari) jamoat xavfsizligi xizmatining yo'l harakati xavfsizligi bo'linmalari (bundan buyon matnda Davlat yo'l harakati xavfsizligi xizmati deb yuritiladi), O'zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat xavfsizlik xizmati, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo'mitasi yo'l harakati sohasidagi maxsus vakolatli davlat organlari (bundan buyon matnda maxsus vakolatli davlat organlari deb yuritiladi) jumlasiga kiradi.

## 7-modda. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining yo'l harakati sohasidagi vakolatlari

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:

- yo'l harakati sohasidagi davlat dasturlarini tasdiqlaydi va ularning amalga oshirilishini ta'minlaydi;
- yo'l harakati sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarni o'z vakolatlari doirasida ishlab chiqadi va qabul qiladi;
- davlat boshqaruvi organlarining, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining yo'l harakati sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtiradi;
- yo'l harakati sohasi bilan bog'liq mutaxassisliklar, kasblar va lavozimlar ro'yxatini, shuningdek ularga doir malaka talablarini belgilaydi;
- yo'l harakati tashkil etishning asosiy ko'rsatkichlarini shakllantirish, ularning hisobini yuritish va ulardan foydalanish tartibini tasdiqlaydi;
- transport vositalari va yo'llarning texnik holatiga, yo'llarda va temir yo'llar kesishmalarida yo'l harakati xavfsizligiga doir yagona talablarni belgilaydi;
- transport vositalarining haydovchilarini tayyorlashga, shuningdek aholiga Yo'l harakati qoidalarini o'rgatishga doir umumiy talablarni belgilaydi;
- haydovchilarni, transport vositalarini, Yo'l harakati qoidalarining buzilishlarini, yo'l-transport hodisalarini va yo'l harakati sohasidagi boshqa ma'lumotlarni hisobga olishning yagona tizimini tasdiqlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

## 8-modda. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining yo'l harakati sohasidagi vakolatlari

Mahalliy davlat hokimiyati organlari:

- yo'l harakati sohasidagi davlat dasturlarini amalga oshirishda ishtirok etadi;
- yo'l harakati sohasidagi hududiy dasturlarni ishlab chiqadi, tasdiqlaydi va ularning amalga oshirilishini ta'minlaydi;
- xo'jaliklararo qishloq yo'llarida, tumanlar (shaharlar), shaharchalar, qishloqlar va ovullarning ko'chalarida yo'l harakati monitoringini tashkil etadi hamda amalga oshiradi;
- xo'jaliklararo qishloq yo'llarida, tumanlar (shaharlar), shaharchalar, qishloqlar va ovullarning ko'chalarida joylashgan to'xtab turish joylarining, shu jumladan pulli to'xtab turish joylarining reestrini yuritadi;

Davlat yo'l harakati xavfsizligi xizmati bilan kelishuvga ko'ra, xo'jaliklararo qishloq yo'llarida, tumanlar (shaharlar), shaharchalar, qishloqlar va ovullarning ko'chalarida yo'l harakatini tashkil etishning texnik vositalari o'rnatilishini, almashtirilishini, olib tashlanishini va ularga texnik xizmat ko'rsatilishini amalga oshiradi;

yo'l harakatini tashkil etishning texnik vositalari joylashuvini yuritadi hamda ularning joylashuviga muvofiqligi va texnik holati ustidan nazoratni amalga oshiradi;

yo'l harakati sohasiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etadi;

yo'llarga tutash bo'lgan hududlarda xizmat ko'rsatish infratuzilmasi obyektlarini tashkil etadi va rivjollantiradi;

yo'l harakati xavfsizligi tibbiy jihatdan ta'minlanishini, shuningdek yo'l-transport hodisalarida jabrlanganlarga tibbiy yordam ko'rsatilishini tashkil etadi;

xo'jaliklararo qishloq yo'llarining, tumanlar (shaharlar), shaharchalar, qishloqlar va ovullar ko'chalarining, shahar elektr transporti yo'llarining, shuningdek yo'l harakatini tashkil etish texnik vositalarining jihozlanishini va soz holatda saqlanishini ta'minlaydi;

yo'l-transport hodisalarining profilaktikasi bo'yicha choralar ko'radi, aholi o'rtasida Yo'l harakati qoidalariga rioya etilishi bo'yicha targ'ibotni amalga oshiradi.

Mahalliy davlat hokimiyati organlari qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

## 9-modda. O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi va uning tasarrufidagi tashkilotlarning yo'l harakati sohasidagi vakolatlari

O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi va uning tasarrufidagi tashkilotlar:

yo'l harakati sohasidagi davlat dasturlarini ishlab chiqishda va amalga oshirishda ishtirok etadi;

yo'l harakati sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlar va normativ hujjatlar loyihalarini o'z vakolatlari doirasida ishlab chiqadi;

yo'l harakati sohasidagi davlat nazoratini o'z vakolatlari doirasida amalga oshiradi;

yo'l harakati sohasidagi tadbirlarni ishlab chiqadi va amalga oshiradi hamda ularni o'tkazishga doir uslubiy tavsiyalarni tasdiqlaydi;

umumiy foydalanishdagi yo'llarda yo'l harakati monitoringini tashkil etadi va amalga oshiradi;

Davlat yo'l harakati xavfsizligi xizmati bilan kelishuvga ko'ra, umumiy foydalanishdagi yo'llarda yo'l harakatini tashkil etishning texnik vositalarini o'rnatish loyihalari tayyorlaydi, ushbu vositalarni o'rnatish, almashtirish, olib tashlashni va ularga texnik xizmat ko'rsatishni amalga oshiradi;

yo'l harakatini tashkil etishning texnik vositalari joylashuvini yuritadi hamda ularning joylashuviga muvofiqligi va texnik holati ustidan davlat nazoratini amalga oshiradi;

yo'llarning harakat uchun xavfli uchastkalarini aniqlaydi va bunday uchastkalarda yo'l harakatini tashkil etishni takomillashtirish bo'yicha choralar ko'radi;

yo'l harakatini tashkil etish loyihalarining auditi o'tkazadi;

yo'l harakatini tashkil etishda, yo'llardan foydalanishda, shuningdek yo'l harakati ishtirokchilariga logistikani tashkil etish va xizmatlar ko'rsatish chog'ida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etadi;

yo'l harakati sohasida band bo'lgan mutaxassislarni tayyorlashni, qayta tayyorlashni va ularning malakasini oshirishni amalga oshiradi;

umumiy foydalanishdagi yo'llar bo'yida joylashgan to'xtab turish joylarining, shu jumladan pulli to'xtab turish joylarining reestrini yuritadi;

og'ir vaznli, yirik gabaritli, xavfli va maxsus yuklarni tashuvchi transport vositalarining harakatlanish yo'nalishlarini belgilaydi, shuningdek yo'l-xizmat ko'rsatish obyektlarini joylashtirishni kelishadi;

yo'llarni, temir yo'llar kesishmalarini, shuningdek avtomobillarga yoqilg'i quyish stansiyalarini hamda yo'l bo'yi hududlarida joylashgan boshqa xizmat ko'rsatish obyektlarini qurish, rekonstruksiya qilish hamda kapital ta'mirlash loyihalarini yo'l harakatini tashkil etishga oid qism bo'yicha ko'rib chiqadi va kelishadi;

qurilishi (rekonstruksiya qilinishi) va kapital ta'mirlanishi tugallangan yo'l obyektlarini, temir yo'llar kesishmalarini foydalanishga qabul qilish bo'yicha komissiyalarning ishida ishtirok etadi;

temir yo'llar kesishmalaridan foydalanish, ularning ochilishi va yopilishi tartibini belgilaydi;

ekstremal iqlim sharoitlarida, xususan, havo harorati ko'tarilib ketgan sharoitlarda yo'llarning va yo'l sun'iy inshootlarining texnik holatini saqlash maqsadida sutkaning muayyan vaqtda N2, N3 va M3 toifasidagi transport vositalarining harakatlanishini belgilangan tartibda cheklaydi.

O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi va uning tasarrufidagi tashkilotlar qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

## 10-modda. Davlat yo'l harakati xavfsizligi xizmatining yo'l harakati sohasidagi vakolatlari

Davlat yo'l harakati xavfsizligi xizmati: yo'l harakati sohasidagi davlat dasturlarini ishlab chiqishda va amalga oshirishda ishtirok etadi;

yo'l harakati sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlar va normativ hujjatlar loyihalarini o'z vakolatlari doirasida ishlab chiqadi;

yo'l harakati to'g'risidagi qonunchilikka rioya etilishi ustidan davlat nazoratini o'z vakolatlari doirasida amalga oshiradi;

og'ir vaznli, yirik gabaritli, xavfli va maxsus yuklarni tashuvchi transport vositalarining harakatlanish yo'nalishlarini belgilashda ishtirok etadi;

yo'llarni, temir yo'llar kesishmalarini, shuningdek avtomobillarga yoqilg'i quyish stansiyalarini va yo'llar bo'yab hamda yo'l bo'yi hududlarida joylashgan boshqa inshootlarni qurish, rekonstruksiya qilish hamda kapital ta'mirlash loyihalarini yo'l harakatini tashkil etishga oid qism bo'yicha ko'rib chiqadi va kelishadi;

qurilishi (rekonstruksiya qilinishi) va kapital ta'mirlanishi tugallangan yo'l obyektlarini, temir yo'llar kesishmalarini foydalanishga qabul qilish bo'yicha komissiyalarning ishida ishtirok etadi;

foydalanishdagi transport vositalarining texnik holati ustidan nazoratni amalga oshiradi, transport vositalarining majburiy texnik ko'rigini o'tkazadi (bundan jismoniy shaxslarga tegishli bo'lgan M1 toifasidagi transport vositalari mustasno);

yo'l harakatining monitoringini tashkil etadi va amalga oshiradi;

yo'l harakatini tashkil etish texnik vositalarining texnik holati, shuningdek yo'llarning va temir yo'llar kesishmalarining saqlanishi, ularning yo'l harakatini tartibga solish vositalari bilan jihozlanishi ustidan nazoratni amalga oshiradi;

yo'l harakati sohasidagi normativ hujjatlar talablariga muvofiq bo'lmagan yo'llardan va temir yo'llar kesishmalaridan foydalanishni belgilangan tartibda taqiqlaydi;

yo'l harakatini tashkil etish bo'yicha faoliyatni amalga oshiradi;

yo'l harakatini tashkil etishning texnik vositalarini o'rnatish yoki olib tashlash yuzasidan yo'l egalari va ko'rsatmalar kiritadi, ularni bajarish muddatlari va sifati ustidan nazoratni amalga oshiradi;

yo'lda (yo'lning uchastkasida) transport vositalarining harakatlanishini ushbu Qonunning 23-moddasiga muvofiq cheklaydi yoki taqiqlaydi;

yo'l harakati sohasiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etadi;

yo'llarda va yo'l bo'yi hududlarida ishlarni amalga oshirish bo'yicha tegishli tashkilotlar bilan kelishilgan takliflarni ko'rib chiqadi;

o'z vakolatlari doirasida davlat organlariga yoki boshqa tashkilotlarga, ularning mansabdor shaxslariga yo'l harakatini tashkil etishning texnik vositalarini o'rnatish va ulardan foydalanishga doir faoliyatidagi kamchiliklarni bartaraf etish haqida, biron-bir yo'l uchastkasida harakat xavfsizligiga tahdid soluvchi, yo'l harakati qoidalarining buzilishiga imkon beruvchi vaziyat yuzaga kelganda kamchiliklarni bartaraf etish to'g'risida bajarilishi majburiy bo'lgan taqdimnomalar kiritadi, mazkur yozma taqdimnomalarni bajarish choralari ko'rimagan taqdirda ma'muriy jazolar qo'llaydi;

yo'l harakatini tashkil etishning texnik vositalari loyihalashtirilishini, o'rnatilishini (montaj qilinishini), almashtirilishini, olib tashlanishini tashkil etadi, bu ishlarining bajarilishini nazorat qiladi;

Toshkent va Nukus shaharlarining, viloyat, tuman (shahar) markazlarining ko'chalarida yo'l harakatini tashkil etishning texnik vositalarini o'rnatishni (montaj qilishni), almashtirishni, olib tashlashni hamda ularga texnik xizmatlar ko'rsatishni amalga oshiradi;

Toshkent va Nukus shaharlarining, viloyat, tuman (shahar) markazlarining ko'chalarida yo'l harakatini tashkil etish texnik vositalarining joylashuvini yuritadi va ularning joylashuviga muvofiqligi hamda texnik holati ustidan davlat nazoratini amalga oshiradi;

transport vositalarining, Yo'l harakati qoidalarini buzilishlarining hamda yo'l-transport hodisalarining hisobini yuritadi va ularning ro'yxatga olinishini amalga oshiradi;

milliy haydovchilik guvohnomalarni, avtomototransport vositalari ro'yxatdan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnomalarni hamda avtomototransport vositalari va ularning tirkamalari (yarim tirkamalari) uchun ro'yxatdan o'tkazish davlat raqami belgilarini beradi;

ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni o'z vakolatlari doirasida ko'rib chiqadi.

Davlat yo'l harakati xavfsizligi xizmati qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

## 11-modda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat xavfsizlik xizmatining yo'l harakati sohasidagi vakolatlari

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat xavfsizlik xizmati: maxsus vakolatli davlat organlariga qo'riqlanadigan shaxslar turgan obyektlar atrofida hamda ularning harakatlanish yo'nalishlari (doimiy, muntazam va zaxira) bo'yab joylashgan yer osti kommunikatsiya tarmoqlarini, temir yo'llar kesishmalarini, avtomobillarga yoqilg'i quyish stansiyalarini, yo'l obyektlarini ta'mirlash, qurish, rekonstruksiya qilish bo'yicha loyihalarni ko'rib chiqadi va kelishadi;

qo'riqlanadigan shaxslar turgan obyektlar atrofida hamda ularning harakatlanish yo'nalishlari (doimiy, muntazam va zaxira) bo'yab rejalashtirilayotgan har qanday turdagi ishlarni bajarishga doir takliflarni ko'rib chiqadi;

qo'riqlanadigan shaxslar turgan obyektlar atrofida hamda ularning harakatlanish yo'nalishlari (doimiy, muntazam va zaxira) bo'yab rejalashtirilayotgan har qanday turdagi ishlarni bajarishga doir takliflarni ko'rib chiqadi;

qo'riqlanadigan shaxslar turgan obyektlar atrofida hamda ularning harakatlanish yo'nalishlari (doimiy, muntazam va zaxira) bo'yab joylashgan, qurilishi rejalashtirilgan obyektlarga olib boruvchi alohida yo'llarni ochish yoki yopish to'g'risida mahalliy davlat hokimiyati organlari kiritadigan takliflarni Davlat yo'l harakati xavfsizligi xizmati tomonidan o'rganilganidan keyin kelishadi;

qo'riqlanadigan shaxslar turgan obyektlar atrofida hamda ularning harakatlanish yo'nalishlari (doimiy, muntazam va zaxira) bo'yab yo'l harakatini tashkil etishning texnik vositalarini o'rnatish (montaj qilish), almashtirish va olib tashlash bo'yicha takliflarni ko'rib chiqadi;

qo'riqlanadigan shaxslar turgan obyektlar hududida hamda ularning harakatlanish yo'nalishlarida (doimiy, muntazam va zaxira) yo'l harakatini tashkil etish hamda yo'l harakati ustidan navbatdan tashqari nazorat olib borish yuzasidan maxsus vakolatli davlat organlariga topshiriqlar beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat xavfsizlik xizmati qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

## 12-modda. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo'mitasining yo'l harakati sohasidagi vakolatlari

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo'mitasi:

bojxona postlari hududlarida yo'l harakatini tashkil etadi;

bojxona postlari hududlarini yo'l harakatini tashkil etishning texnik vositalari bilan ta'minlaydi;

chet davlatlarda ro'yxatdan o'tkazilgan va haydovchilari O'zbekiston Respublikasi hududida Yo'l harakati qoidalarini buzgan transport vositalarini O'zbekiston Respublikasi hududidan olib chiqib ketayotgan haydovchilardan yoki boshqa shaxslardan O'zbekiston Respublikasi hududida Yo'l harakati qoidalarini buzganlik uchun tayinlangan jarimalar undirilishini ta'minlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo'mitasi qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

## 13-modda. Fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining, nodavlat notijorat tashkilotlarining va fuqarolarning yo'l harakati sohasidagi tadbirlarni amalga oshirishda ishtirok etishi

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolar:

yo'l harakatini tashkil etish bo'yicha tadbirlarni amalga oshirishda, shuningdek yo'l-transport hodisalarining profilaktikasida ishtirok etadi;

yo'l harakati to'g'risidagi qonunchilikni, yo'l harakati sohasidagi normativ hujjatlarni takomillashtirish bo'yicha takliflar kiritadi;

yo'l harakati to'g'risidagi qonunchilikning ijro etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshiradi;

davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tomonidan yo'l harakati sohasidagi qarorlarni ishlab chiqishda qonunchilikka nazarda tutilgan tartibda ishtirok etadi.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolar qonunchilikka muvofiq boshqa tadbirlarda ham ishtirok etishi mumkin.

## 14-modda. Korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning yo'l harakati sohasidagi tadbirlarni amalga oshirishda ishtirok etishi

Mahalliy davlat hokimiyati organlari va maxsus vakolatli davlat organlari tomonidan yo'l harakati sohasidagi tadbirlar korxonalar, muassasalar va tashkilotlar, shu jumladan tadbirkorlik subyektlari jalb etilgan holda amalga oshirilishi mumkin.

Korxonalar, muassasalar va tashkilotlar, shu jumladan tadbirkorlik subyektlari yo'l harakati sohasidagi tadbirlarni amalga oshirishda qonunchilikka belgilangan tartibda ishtirok etadi.

## 15-modda. Yo'l egasining huquq va majburiyatlari

Yo'l egasi quyidagi huquqlarga ega:

yo'llarni qurish, ta'mirlash va rekonstruksiya qilish loyihalarini kelishib olish va tasdiqlashda, shuningdek ta'mirlash ishlarini tashkil etishda ishtirok etish;

ekstremal iqlim sharoitlarida, xususan, havo harorati ko'tarilib ketgan sharoitlarda yo'llarning va yo'l sun'iy inshootlarining texnik holatini saqlab turish maqsadida sutkaning muayyan vaqtida N2, N3 va M3 toifasidagi transport vositalarining harakatlanishini cheklash to'g'risida Davlat yo'l harakati xavfsizligi xizmatiga takliflar kiritish.

Yo'l egasi qonunchilikka muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

Yo'l egasi:

yo'llarda yo'l harakatini tashkil etishning texnik vositalari o'rnatilishini (montaj qilinishini), almashtirilishini, olib tashlanishini, ularga texnik xizmat ko'rsatilishini va ular o'z vaqtida ta'mirlanishini ta'minlashi;

yo'l harakatini tashkil etish uchun xavf tug'dirayotgan ko'p yillik dov-daraxtlar, ularning shoxlari, butalar, qonunga xilof qurilmalar, shuningdek materiallar va chiqindilar yo'lning qatnov qismidan olib tashlanishini ta'minlashi, bunda daraxtlarni va butalarni kesib tashlanishi tabiat resurslari organlari bilan kelishgan holda amalga oshirishi;

yo'l-transport hodisasi sodir bo'lgan yoki yo'l harakati ishtirokchilari uchun xavf tug'diradigan joylarda yo'l harakatini tashkil etishning oqohlantiruvchi, shuningdek yo'naltiruvchi texnik vositalarini Davlat yo'l harakati xavfsizligi xizmati bilan kelishuvga ko'ra o'rnatishi;

ushbu Qonun 23-moddasining birinchi qismida nazarda tutilgan holda, transport vositalarining yo'llarda (yo'llar uchastkalarida) harakatlanishini cheklash yoki taqiqlash choralari ko'rish;

yo'l harakati ishtirokchilarining xavfsizligini ta'minlashi, shuningdek transport vositasiga chiqish va tushishda jamoat transporti yo'lovchilari uchun shart-sharoitlar yaratishi;

yo'l harakati sohasiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishi;

yo'l harakatini tashkil etishdagi o'zgarishlar to'g'risidagi axborotni yo'l harakati ishtirokchilariga ommaviy axborot vositalari orqali, shuningdek Internet jahon axborot tarmog'idan foydalangan holda kamida bir sutka oldin yetkazishi;

Davlat yo'l harakati xavfsizligi xizmatiga yo'llarning holati to'g'risida, ularga xizmat ko'rsatilishi, ularning yopilishi va ochilishi haqida, yo'llarda belgilangan cheklovlar va taqiqlar to'g'risida axborot taqdim etishi;

O‘zbekiston Respublikasining QONUNI

# Yo‘l harakati to‘g‘risida

(Davomi. Boshlanishi 1, 2-betlarda).

ekstremal iqlim sharoitlarida, yo‘ning qatnov qismida yaxmalak hosil bo‘lganda va favqulodda vaziyatlar ro‘y berganda yo‘l harakatini tashkil etishdagi o‘zgarishlar haqidagi axborotni darhol maxsus vakolatti davlat organlariga va mahalliy davlat hokimiyati organlariga yuborishi, shuningdek bu haqda yo‘l harakati ishtirokchilarini xabardor qilishi shart.

Yo‘l egasining zimmasida qonunchilikka muvofiq boshqa majburiyatlarni ham bo‘lishi mumkin.

## 3-bob. Yo‘l harakatini tashkil etish va monitoring qilish

### 16-moddada. Yo‘l harakatini tashkil etishga doir umumiy talablar

Yo‘l harakatini tashkil etish texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarda belgilangan talablarga javob beradigan texnik vositalardan foydalangan holda amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasining butun hududida yo‘l harakatini tashkil etish O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasida tomonidan tasdiqlanadigan yagona tartib asosida amalga oshiriladi.

Yo‘llarda transport vositalarining o‘ng tomonlama harakati belgilanadi.

Yo‘l harakatini tashkil etishga doir tadbirlarni ishlab chiqish qonunchilik talablariga muvofiq amalga oshiriladi.

### 17-moddada. Yo‘l harakatini tashkil etishga doir tadbirlar

Yo‘l harakatini tashkil etishga doir tadbirlar jumlasiga quyidagilar kiradi:

transport oqimlarining harakatlanish polosalari bo‘yicha taqsimlanishini boshqarish, shu jumladan transport oqimlarining harakatlanishini transport vositalarining toifalariga, harakat tezligiga va yo‘nalishiga, ularning harakatlanish vaqtiga qarab guruhlariga bo‘lish;

yo‘llarning o‘tkazuvchanlik qobiliyatini oshirish, shu jumladan transport vositalarining harakat xavfsizligiga tahdid soluvchi to‘siqlar va sharoitlarni bartaraf etish, chorahalarni rekonstruksiya qilish, yo‘l o‘tkazgichlarni qurish;

svetofor obyektlarini tizimli boshqarish, ularning yo‘l harakatini tartibga solish sikllarini maqbullashtirish;

yo‘l harakatini tashkil etish to‘g‘risidagi hujjatlarda belgilangan hududlar chegaralarida svetofor obyektlari ko‘rsatkichlarining o‘zaro aloqadorligini belgilash;

piyodalar va velosipedchilar harakatini ta‘minlash, shu jumladan piyodalar o‘tish joylarini va velosipedchilar yo‘laklarini belgilash, qurish, jilvazlash hamda tartibga solish maqsadida yo‘l infratuzilmasini rivojlantirish;

yo‘nalishli transport vositalarining harakatlanishi uchun ustuvorlikni joriy etish;

yo‘ldan tashqarida to‘xtab turish joylarini rivojlantirish; transport vositalarining harakatlanishini cheklash yoki taqiqlash.

Transport vositalarining yo‘llarda taqsimlanishini boshqarishda yo‘llarni qurish, rekonstruksiya qilish, kapital ta‘mirlash va ta‘mirlash bo‘yicha tadbirlar, shuningdek yo‘l harakatini tashkil etishning asosiy ko‘rsatkichlariga ta‘sir ko‘rsatadigan kapital qurilishning boshqa turlari hisobga olinishi kerak.

Milliy standartlar talablariga muvofiq bo‘lmagan yo‘l harakatini tashkil etishning texnik vositalarini joylashtirishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Yo‘l harakatini tashkil etishga doir tadbirlar maxsus vakolatti davlat organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan bevosita yoki korxonalar, muassasalar va tashkilotlarni, shu jumladan tadbirkorlik subyektlarini qonunchilikda belgilangan tartibda jalb etgan holda amalga oshiriladi.

## 18-moddada. Yo‘l harakatini tashkil etishning asosiy ko‘rsatkichlari

Yo‘l harakatini tashkil etishning asosiy ko‘rsatkichlaridan maxsus mahalliy davlat hokimiyati organlari va vakolatti davlat organlari tomonidan yo‘l harakatini tashkil etishning texnik vositalarini o‘rnatishda, yo‘l harakatining monitoringini amalga oshirishda, yo‘lining o‘tkazuvchanlik qobiliyatini aniqlashda, transport vositalarining harakatlanishini cheklashda yoki taqiqlashda foydalaniladi.

Yo‘l harakatini tashkil etishning asosiy ko‘rsatkichlari quyidagilardan iborat:

yo‘l harakatini tavsiflovchi ko‘rsatkichlar – yo‘lining o‘tkazuvchanlik qobiliyati, harakatning jadalligi, transport oqimining tarkibi, transport vositalari harakatlanishining o‘rtacha tezligi, yo‘lining bir kilometrda harakatlanayotgan transport vositalarining o‘rtacha soni (harakat zichligi);

yo‘ning transport-ekspluatatsiya ko‘rsatkichlari – harakatlanishning belgilangan tezlik bilan ta‘minlanganligi, yo‘lining o‘tkazuvchanlik qobiliyati, yo‘lining harakatlanish bilan yuklanganlik darajasi, harakatning uzluksizligi va qulayligi, yo‘lining toifasiga qarab transport vositalarining o‘qlariga tushadigan og‘irlikka va yuk ko‘tarish qobiliyatiga ko‘ra o‘tkazish quvvati yoki umumiy yuk ko‘tarish hajmi;

yo‘ning geometrik va fizik ko‘rsatkichlari – qatnov qismining hamda yo‘l yoqasi mustahkamlangan qismining kengligi, bo‘ylama qiyaliklarning kattaligi, tik va yotiq egriqliklar radiuslari, burilishlarning yo‘l tuproq ko‘tarmasi yonbag‘irlarining nishabligi, ko‘rinuvchanlik masofalari, ko‘priklar, yo‘l o‘tkazgichlarining hamda boshqa yo‘l sun‘iy inshootlarining o‘lchamlari, yuk ko‘tarish quvvati, muhandislik inshootlarining va yo‘l elementlarining holati, qatnov qismining hamda yo‘l bo‘yidagi qoplamalarning kengligi, yo‘l tuproq ko‘tarmasining mustahkamligi, o‘zgaruvchanligi, yopishuvchanligi hamda holati, gidroizolyatsiya tizimining holati va yaroqliligi;

yo‘l harakati ishtirokchilarining harakat davomida vaqt yo‘qotishini (kechikishini) tavsiflovchi ko‘rsatkichlar, tirband joylar soni;

yo‘l harakati xavfsizligini tavsiflovchi ko‘rsatkichlar – sodir bo‘lgan yo‘l-transport hodisalarining, yo‘l transport hodisalarini oqibatida badaniga shikast yetkazilgan va halok bo‘lgan shaxslarning, avariya o‘choqlarining, shuningdek yo‘l harakati qoidalarini buzish bilan bog‘liq ma‘muriy huquqbuзарliklarning soni.

## 19-moddada. Yo‘l harakatini tashkil etishning texnik vositalari

Yo‘l harakatini tashkil etishning texnik vositalari davlat standartlari talablariga muvofiq qo‘llaniladi.

Yo‘l harakatini tashkil etishning texnik vositalariga doir talablar texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar bilan belgilanadi.

## 20-moddada. Tashqi reklama va axborot obyektlari (konstruksiyaalari)

Tashqi reklama va axborot obyektlarini (konstruksiyaalari) joylashtirish "Reklama to‘g‘risida"gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunida nazarda tutilgan tartibda amalga oshiriladi.

Yo‘l harakatini tashkil etishga monelik qiluvchi tashqi reklama va axborot obyektlarini (konstruksiyaalari) joylashtirishga yo‘l qo‘yilmaydi.

## 21-moddada. Yo‘lining ta‘mirlash ishlari olib borilayotgan uchastkalarida yo‘l harakatini tashkil etish

Yo‘l uchastkalarini rekonstruksiya qilish, kapital ta‘mirlash yoki ta‘mirlash bo‘yicha ishlar bajarilayotganda yo‘lining mazkur uchastkalaridagi qatnov qismining lo‘pi bilan ellik foizi o‘tish uchun cheklanishi yoki yopilishi mumkin.

Yo‘l uchastkalarida qatnov qismining ellik foizidan ko‘prog‘ini yopish zarur bo‘lgan taqdirda mazkur yo‘l uchastkalarini aylanib o‘tish ta‘minlanishi kerak.

Yo‘l uchastkalarini rekonstruksiya qilish, kapital ta‘mirlash yoki ta‘mirlash bo‘yicha ishlar boshlanishidan yoxud yo‘l uchastkalarida boshqa ishlar amalga oshirilishidan uch kun oldin va ushbu ishlarni bajarish davrida yo‘l harakatini tashkil etishning zarur texnik vositalari o‘rnatiladi.

Yo‘l uchastkalarini rekonstruksiya qilish, kapital ta‘mirlash yoki ta‘mirlash bo‘yicha ishlarni bajarish chog‘ida ushbu ishlarni bajarishga doir ishnomalarda belgilanmagan to‘siqlarni o‘rnatishga yo‘l qo‘yilmaydi.

## 22-moddada. Kapital qurilish obyektlarida yo‘l harakatini tashkil etish tartibi

Kapital qurilish obyektlarida yo‘l harakatini tashkil etishda shaharsozlik normalari va qoidalarida ko‘rsatilgan yo‘l harakatini tashkil etish samaradorligini ta‘minlash talablari hisobga olinadi.

Kapital qurilish obyektlarini yo‘l harakatini tashkil etish talablarini buzgan holda joylashtirishga yo‘l qo‘yilmaydi.

## 23-moddada. Yo‘llarda (yo‘l uchastkalarida) transport vositalarining harakatlanishini cheklash yoki taqiqlash

Yo‘llarda (yo‘l uchastkalarida) transport vositalarining harakatlanishini cheklash yoki taqiqlash tegishli vakolatti davlat organlarining axborotiga asosan quyidagi hollarda amalga oshiriladi:

yo‘l harakati xavfsizligiga, shu jumladan fuqrolarning hayotiga yoki sog‘lig‘iga tahdid bo‘lganda;

ekstremal iqlim sharoitlari to‘g‘risida, tabiiy ofatlar, avariyalar, yong‘inlar, tabiiy hamda texnogen xususiyatli boshqa favqulodda vaziyatlar ro‘y berishi xavfi haqida belgilangan tartibda ogohlantirish kelib tushganda;

ekstremal iqlim sharoitlari, tabiiy ofatlar, avariyalar, yong‘inlar, tabiiy hamda texnogen xususiyatli boshqa favqulodda vaziyatlar ro‘y berganda;

yo‘l-transport hodisalarini sodir etilganda; qonunda nazarda tutilgan tezkor-qidiruv tadbirlari, shuningdek pressual harakatlarni amalga oshirilayotganda;

ommaviy tadbirlar (sport tadbirlari va madaniy tadbirlar, kino-va fototasvirga olish, ommaviy sayrlar, yarmarkalar, ommaviy yurishlar hamda boshqa tadbirlar) o‘tkazilayotganda; qo‘riqlanadigan shaxslar yo‘lda harakatlanayotganda.

Yo‘llarda (yo‘l uchastkalarida) transport vositalarining harakatlanishini cheklash yoki taqiqlash qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda ham amalga oshirilishi mumkin.

Yo‘l egalari tomonidan jalb qilinadigan yo‘llarni ta‘mirlash va saqlash bo‘yicha tashkilotlar ushbu moddani birinchi qismida nazarda tutilgan hollarda, shuningdek yo‘lining (yo‘l uchastkasining) transport-ekspluatatsiya sifati yomonlashganda va boshqa shunga o‘xshash hollarda, ta‘mirlash-qurilish ishlari olib borilayotganda mahalliy davlat hokimiyati organlarini bu haqda xabardor qilgan, yo‘llardan foydalanuvchilarni ommaviy axborot vositalari orqali e‘lon qilib xabardor etgan hamda yo‘l harakatini tashkil etishning tegishli texnik vositalarini o‘rnatgan holda, transport vositalarining harakatlanishini Davlat yo‘l harakati xavfsizligi xizmati va O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligining bo‘linmalari bilan kelishuvga ko‘ra cheklash yoki taqiqlash huquqiga ega.

Yo‘l egalari yo‘lardagi yoki ularning ayrim uchastkalaridagi harakatlanishni ajratilgan mintaqada ishlar olib borilayotganda bunday ishlarni olib borish transport vositalari va piyodalarning harakat xavfsizligiga tahdid qilgan hollarda ham cheklashga yoki taqiqlashga haqli.

Ishlarni olib borish uchun yo‘llarda yoki ularning ayrim uchastkalarida harakatlanishni cheklash yoki taqiqlash yo‘llar egalarning roziligi bilan amalga oshiriladi.

Shoshilinch, kechiktirib bo‘lmaydigan hollarda, yo‘llarda (yo‘l uchastkalarida) harakatlanishni cheklash yoki taqiqlash ishlarni amalga oshirish uchun oldindan rozilik olmasdan turib, biroq yo‘llarning egalari va Davlat yo‘l harakati xavfsizligi xizmatini bu haqda majburiy ravishda xabardor qilgan holda joriy etilishi mumkin.

## 24-moddada. To‘xtab turish joylariga doir talablar

Ko‘p kvartirali uylarga tutash hududlarining belgilangan chegaralarida to‘xtab turish joylarini qurish to‘g‘risidagi qarorlar bududni rejalashtirish bo‘yicha tasdiqlangan hujjatlar muvofiq mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan qabul qilinadi. Bunda qurilish ishlari shaharsozlik normalari va qoidalarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

To‘xtab turish joylarini joylashtirish ekologik xavfsizlikni ta‘minlash hamda atrof-muhitga, aholining sog‘lig‘i va osoyishtaligiga salbiy ta‘sirni kamaytirish hisobga olingan holda amalga oshiriladi.

To‘xtab turish joylarining belgilangan maqsadi va imkoniyatlari (joylar soni) shaharsozlik normalariga va qoidalariga muvofiq belgilanadi.

To‘xtab turish joylariga bo‘lgan ehtiyojlarni aniqlash uchun mazkur hududda foydalanuvchilarga xizmat ko‘rsatilishi uchun zarur bo‘lgan transport vositalarining soni, shuningdek ularning kelgusida ko‘paytirilishi inobatga olinadi.

To‘xtab turish joylari yo‘l harakatini tashkil etish bo‘yicha hujjatlarda ko‘rsatilgan ehtiyojga mos keladigan miqdorda tashkil qilinadi.

To‘xtab turish joylarini ro‘yxatga olish yo‘l egasi tomonidan amalga oshiriladi.

To‘xtab turish joylarida to‘xtab turish joyining kirish yoki undan chiqish joyiga tutash bo‘lgan alohida joylar nogironligi bo‘lgan shaxslar boshqaradigan va ushbu shaxslarni tashiydigan transport vositalari uchun qonunchilikka muvofiq majburiy tartibda ajratiladi.

Elektr dvigatelda ishlaydigan transport vositalari uchun alohida joylar ajratiladi. Bunday joylarda elektr quvvat manbalariga ulanish imkoniyati yaratilishi mumkin.

To‘xtab turish joylaridan foydalanishga monelik qiladigan to‘siqlarni va boshqa konstruksiyaalarni o‘rnatish taqiqlanadi.

To‘xtab turish joylariga transport vositalarining kirishini, ulardan chiqishini va bu joylarda harakatlanishini tashkil etish maxsus vakolatti davlat organlari bilan kelishilgan loyihaga muvofiq amalga oshiriladi.

To‘xtab turish joylaridan foydalanuvchilar transport vositalarini joylashtirishda to‘xtab turish joylarining egalari tomonidan belgilangan to‘xtab turish joylaridan foydalanish qoidalariga rioya etishi shart. Umumiy foydalanishdagi to‘xtab turish joylarining egalari to‘xtab turish joylaridan foydalanish qoidalarini hamma uchun qulay bo‘lgan joylarga tanishib chiqish uchun joylashtirishi shart.

To‘xtab turish joylaridan foydalanish qoidalariga rioya etilishi ustidan nazorat mazkur to‘xtab turish joylarining egalari tomonidan amalga oshiriladi.

Ushbu moddada belgilangan, to‘xtab turish joylariga doir talablarga rioya etilishi ustidan nazorat maxsus vakolatti davlat organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan amalga oshiriladi.

## 25-moddada. Pulli to‘xtab turish joylariga doir talablar. Pulli to‘xtab turish joylari egalarning huquq va majburiyatlari

Pulli to‘xtab turish joylarining egalari pulli to‘xtab turish joylaridan foydalanilganlik uchun to‘lov miqdorini Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi bilan kelishilgan holda belgilanadigan cheklangan miqdorlardan yuqori bo‘lmagan tariflar bo‘yicha mustaqil ravishda belgilaydi.

Pulli to‘xtab turish joylaridan foydalanilganlik uchun to‘lov naqd pul shaklida yoki naqd pulsiz shaklda, to‘lov tizimlaridan, shu jumladan avtomatlashtirilgan to‘lov tizimlaridan foydalanilgan holda amalga oshiriladi.

Pulli to‘xtab turish joylarini tashkil etish chog‘ida ushbu Qonunning 24-moddasida belgilangan talablar bajariladi.

Pulli to‘xtab turish joylarining egalari quyidagi huquqlarga ega:

pulli to‘xtab turish joylaridan bepul yoki imtiyozli foydalanish huquqi beriladigan foydalanuvchilarning ro‘yxatini belgilash;

pulli to‘xtab turish joylaridan bepul yoki imtiyozli foydalanish huquqi beriladigan transport vositalarining ro‘yxatini belgilash.

Pulli to‘xtab turish joylarining egalari:

pulli to‘xtab turish joylaridan foydalanilganlik uchun avtomatlashtirilgan to‘lov tizimini joriy etishi;

pulli to‘xtab turish joylari tashkil etilgan hududda yo‘l belgilarini o‘rnatilishini, shuningdek videokuzatuv tizimlari yoki qo‘riqlashning boshqa texnik vositalari o‘rnatilishi va uzluksiz ishlashini ta‘minlashi;

to‘xtab turish joyining kirish yoki undan chiqish joyiga tutash bo‘lgan to‘xtab turish joylari orasidan nogironligi bo‘lgan shaxslar boshqaradigan yoki ularni tashiydigan transport vositalari uchun to‘xtab turish joylari ajratilishini ta‘minlashi shart.

Pulli to‘xtab turish joylarining egalari qonunchilikka muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi va ularning zimmasida o‘zga majburiyatlar bo‘lishi mumkin.

## 26-moddada. Yo‘l harakati monitoringi

Yo‘l harakati monitoringi maxsus vakolatti davlat organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan amalga oshiriladi. Yo‘l harakati monitoringini amalga oshirish maqsadida maxsus vakolatti davlat organlarida alohida bo‘linmalar tashkil etilishi mumkin.

## 4-bob. Yo‘l harakatini tashkil etishga doir hujjatlar

### 27-moddada. Yo‘l harakatini tashkil etishga doir hujjatlarga oid umumiy talablar

Yo‘l harakatini tashkil etishga doir hujjatlar O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligi talablariga muvofiq bo‘lishi kerak. Yo‘l harakatini tashkil etishga doir hujjatlar fuqrolarning hayoti va sog‘lig‘i muhofaza qilinishini, ekologik xavfsizlikni ta‘minlash hamda atrof-muhitga transport vositalarining salbiy ta‘sirini kamaytirish hisobga olingan holda ishlab chiqiladi.

### 28-moddada. Yo‘l harakatini tashkil etish bo‘yicha kompleks dasturlar

Yo‘l harakatini tashkil etish bo‘yicha kompleks dasturlar yo‘l harakatini tashkil etishning strategiy yo‘nalishlarini belgilash hamda yo‘l harakatini boshqarish samaradorligini ta‘minlash yuzasidan qarorlar qabul qilish uchun ishlab chiqiladi.

Yo‘l harakatini tashkil etish bo‘yicha kompleks dasturlar

tumanlar (shaharlar) kesimida besh yil muddatga ishlab chiqiladi hamda ular asosida Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri bo‘yicha kompleks dasturlar tayyorlanadi.

Tumanlarning (shaharlarning), shaharchalar, qishloqlar va ovullarning ko‘chalarida, shuningdek xo‘jalik yo‘llarida yo‘l harakatini tashkil etish bo‘yicha kompleks dasturlar mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi.

Umumiy foydalanishdagi yo‘llarda yo‘l harakatini tashkil etish bo‘yicha kompleks dasturlar O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligi tomonidan tayyorlanadi va tasdiqlanadi.

Yo‘l harakatini tashkil etish bo‘yicha kompleks dasturlarda quyidagilar nazarda tutiladi:

yo‘l harakatini tashkil etish bo‘yicha tadbirlar;

atrof-muhitga transport vositalarining salbiy ta‘sirini kamaytirishni ta‘minlash bo‘yicha tadbirlar;

yo‘l harakatini boshqarishning avtomatlashtirilgan tizimlarini joriy etish;

aholisi besh yuz ming nafar kishidan ortiq bo‘lgan shaharlarda – tranzit tashuvchilar uchun aylanib o‘tish (halqa) yo‘llari haqidagi, tirbandliklarning oldini olish maqsadida shaharga kirilayotganda to‘xtab turish joylari to‘g‘risidagi, shahar hududidagi mavjud to‘xtab turish joylari haqidagi avtomatlashtirilgan axborot tizimlarini joriy etish;

yo‘llarni va yo‘l obyektlarini loyihalashtirish, qurish, rekonstruksiya qilish, kapital ta‘mirlash hamda ta‘mirlash bo‘yicha tadbirlar.

Yo‘l harakatini tashkil etish bo‘yicha kompleks dasturlarda ko‘rsatilgan tadbirlarni amalga oshirish O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag‘lari va budjetdan tashqari mablag‘lar hisobidan amalga oshiriladi.

Yo‘l harakatini tashkil etish bo‘yicha kompleks dasturlar ommaviy axborot vositalariga, shu jumladan maxsus vakolatti davlat organlarining va mahalliy davlat hokimiyati organlarining rasmiy veb-saytlariga joylashtiriladi.

## 29-moddada. Yo‘l harakatini tashkil etish loyihalari

Yo‘l harakatini tashkil etish loyihalari yo‘l harakatini tashkil etish bo‘yicha kompleks dasturlarda ko‘rsatilgan tadbirlarni amalga oshirish, shuningdek og‘ir vaznli, yirik gabaritli, xavfli va maxsus yuklarni tashuvchi transport vositalarining harakatlanish yo‘nalishlarini belgilash maqsadida loyihalash tashkilotlari tomonidan ishlab chiqiladi.

Xalqaro ahamiyatga ega bo‘lgan yo‘llarda yo‘l harakatini tashkil etish loyihalari xalqaro normalalar talablari hisobga olingan holda bajariladi.

Og‘ir vaznli, yirik gabaritli, xavfli va maxsus yuklarni tashuvchi transport vositalarining harakatlanish yo‘nalishlari bo‘yicha yo‘l harakatini tashkil etish loyihalarini ishlab chiqish chog‘ida quyidagilar hisobga olinadi:

og‘ir vaznli, yirik gabaritli, xavfli va maxsus yuklarni tashish qoidalarini;

taqiqlovchi yo‘l belgilarini o‘rnatish; og‘ir vaznli, yirik gabaritli, xavfli va maxsus yuklarni tashuvchi transport vositalarining yo‘l sun‘iy inshootlari orqali o‘tishi tartibi.

Og‘ir vaznli, yirik gabaritli, xavfli va maxsus yuklarni tashuvchi transport vositalarining yo‘l sun‘iy inshootlari orqali o‘tishi tartibi maxsus vakolatti davlat organlari tomonidan belgilanadi.

Tadbirlarni yo‘l harakatini tashkil etishning tasdiqlanmagan loyihalari bo‘yicha amalga oshirishga yo‘l qo‘yilmaydi.

## 30-moddada. Alohida yo‘l harakatini tashkil etish loyihalari

Yo‘llarda transport vositalarining harakati bir sutkadan ortiq muddatga cheklangan yoki taqiqlangan taqdirda alohida yo‘l harakatini tashkil etish loyihalari ishlab chiqiladi.

Yo‘llarda transport vositalarining harakatlanishini cheklash yoki taqiqlash davri uchun alohida yo‘l harakatini tashkil etish loyihalari yo‘l harakati ishtirokchilarining harakat yo‘nalishini belgilash maqsadida quyidagi holatlarda ishlab chiqiladi:

yo‘llarni qurish, rekonstruksiya qilish, kapital ta‘mirlash yoki ta‘mirlash chog‘ida;

transport vositalarining harakatlanishiga ta‘sir qiluvchi qurilish, ta‘mirlash ishlarini va boshqa ishlarni bajarish, shu jumladan muhandislik infratuzilmasi obyektlarini qurish, rekonstruksiya qilish, kapital ta‘mirlash yoki ta‘mirlash chog‘ida;

ommaviy tadbirlarni (sport tadbirlari va madaniy tadbirlar, kino-va fototasvirga olish, ommaviy sayrlar, yarmarkalar, ommaviy yurishlar va boshqa tadbirlar) o‘tkazish chog‘ida;

dam olish va ishlannmaydigan bayram kunlarida dam olish obyektlari hamda zonalar bilan bog‘laydigan yo‘llar bo‘ylab harakatlanish jadalligi normadan oshganda.

## 31-moddada. Yo‘l harakatini tashkil etish loyihalarning auditi

Yo‘l harakatini tashkil etish loyihalari yo‘l harakati xavfsizligi talablariga muvofiqlik yuzasidan auditdan o‘tkaziladi.

Yo‘l harakatini tashkil etish loyihalarning auditi maxsus vakolatti davlat organlari tomonidan mustaqil ravishda yoki shunday auditni o‘tkazish huquqiga ega bo‘lgan tadbirkorlik subyekti shartnoma asosida jalb etilgan holda o‘tkaziladi.

Yo‘l harakatini tashkil etish loyihalarning auditi quyidagi bosqichlarda o‘tkaziladi:

- asoslantirish (rejalashtirish);
  - xomaki loyihalashtirish;
  - batafsil loyihalashtirish;
  - yo‘lni foydalanishga topshirishdan oldin;
  - yo‘lni foydalanishga topshirilganidan keyin.
- Yo‘l harakatini tashkil etish loyihalarning auditi u qaysi bosqichda o‘tkazilganligiga qarab quyidagi turlarga bo‘linadi:
- yo‘lni qurish yoki rekonstruksiya qilish xavfsizligi auditi;
  - foydalaniladigan yo‘lning xavfsizligi auditi;
  - o‘ziga xos maqsadga mo‘ljallangan yo‘l obyektlarining xavfsizligi auditi.

Yo‘l harakatini tashkil etish loyihalarning auditi quyidagi vazifalarni hal etishga qaratiladi:

obyektidan foydalanish chog‘ida yo‘l-transport hodisalarining ro‘y berishi ehtimolini imkon qadar kamaytirish;



O'zbekiston Respublikasining  
QONUNI

Yo'l harakati to'g'risida

(Davomi. Boshlanishi 1, 2, 3-betlarda).

xavfni to'liq bartaraf etish imkoni bo'lmagan yo'l uchastkalarida ro'y berishi mumkin bo'lgan yo'l-transport hodisalarning oqibatlarini imkon qadar kamaytirish uchun samarali yechimlarni qo'llash;

yo'llarni loyihalashtirish va qurish bosqichlarida kamchiliklarni aniqlash hamda bartaraf etish orqali yo'ldan foydalanish chog'ida kamchiliklarni bartaraf etishga doir xarajatlarni kamaytirish.

Yo'l harakatini tashkil etish loyihalarining auditi natijasida tayyorlangan tavsiyalar tegishli bosqichda buyurtmachiga va ishlarni bajaruvchilarga (rejalashtiruvchi tashkilotga, loyihalashtiruvchi tashkilotga, pudratchi tashkilotga, foydalanuvchi tashkilotga) ko'rib chiqish uchun taqdim etiladi.

Yo'l harakatini tashkil etish loyihasinging auditi natijalari bo'yicha xulosa tuzilib, unda yo'l harakatini tashkil etish loyihasi qonunchilik talablariga muvofiq ekanligi yoki muvofiq emasligi ko'rsatiladi.

Agar yo'l harakatini tashkil etish loyihasinging auditi natijasida loyihaning qonunchilik talablariga muvofiq emasligi aniqlansa, mazkur loyihaga tegishli o'zgartishlar kiritiladi.

32-modd. Yo'llarni loyihalashtirishga, qurishga, rekonstruksiya qilishga, ta'mirlashga va saqlashga doir talablar

Yo'llarni loyihalashtirish, qurish, rekonstruksiya qilish, ta'mirlash va saqlash yo'l harakati sohasidagi normativ hujjatlar talablariga muvofiq amalga oshirilishi kerak. Qurilgan va rekonstruksiya qilingan yo'llarning yo'l harakati sohasidagi normativ hujjatlar talablariga muvofiq qonunchilikda belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi tomonidan aniqlanadi.

Loyihalashtirish bosqichida yo'llarning yo'l harakati sohasidagi normativ hujjatlar talablariga muvofiq uchun javobgarlik yo'l harakatini tashkil etish loyihasinging ishlab chiquvchining, qurilish va rekonstruksiya qilish bosqichlarida esa ishlarni bajaruvchining zimmasiga yuklatiladi.

Yo'llarni ta'mirlash va saqlash chog'ida ularning holati yo'l harakati sohasidagi normativ hujjatlar talablariga muvofiq ekanligi ta'mirlash majburiyati yo'l egalaringing zimmasiga yuklatiladi.

Yo'l egalaringing o'z zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarni bajarmaganligi oqibatida yo'l harakati ishtirokchilariga va transport vositasiga yetkazilgan zaraming o'rni qonunchilikda belgilangan tartibda yo'l egalari tomonidan qoplanadi.

33-modd. Yo'llarda xizmat ko'rsatish obyektlarini barpo etish

Yo'llarning egalari xizmat ko'rsatish obyektlarini loyihalashtirish normalariga, ularni qurish rejalariga va ularni joylashtirishning bosh sxemalariga muvofiq o'z ixtiyoridagi yo'llarda mazkur obyektlarni barpo etish choralarini ko'radi, yo'l harakati ishtirokchilarining ehtiyojlarini qanoatlantirish va ularning xavfsizligini ta'minlash maqsadida xizmat ko'rsatish obyektlarining ishini tashkil etadi, yo'l harakati ishtirokchilariga bunday obyektlarning mavjudligi hamda eng yaqin sog'liqni saqlash va aloqa muassasalarining joylashuvi haqidagi axborotni, shuningdek yo'llarning tegishli uchastkalarida harakatlanishning xavfsiz sharoitlari to'g'risidagi axborotni taqdim etadi.

5-bob. Yo'l harakati xavfsizligini ta'minlashga doir talablar

34-modd. Yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash

Yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash yo'l-transport hodisalari ro'y berishi sabablarining oldini olishga va ularning oqibatlarini yumshatishga qaratilgan faoliyatdir.

35-modd. Transport vositalari egalaringing yo'l harakati xavfsizligini ta'minlashga doir majburiyatlarini

Transport vositasiga mulk huquqi, xo'jalik yuritish huquqi yoki operativ boshqarish huquqi asosida yoki boshqa qonuniy asosda egalik qiluvchi shaxs transport vositasining egasidir. Transport vositasini o'z xizmat yoki mehnat majburiyatlarini bajarish uchun, shu jumladan transport vositasining mulkdori yoxud boshqa egasi bilan tuzilgan mehnat shartnomasiga yoki fuqarolik-huquqiy xususiyatga ega shartnomaga asosan boshqaruvchi shaxs transport vositasining egasi bo'lmaydi.

Transport vositalaringing egalari: texnik jihatdan soz transport vositalaridan foydalanishi; transport vositalaringing tegishli malakaga ega bo'lgan va tibbiy ko'rikdan o'tgan shaxslar tomonidan boshqarilishiga ijozat berishi;

transport vositalaridan foydalanish chog'ida boshqa shaxslarning hayotiga, sog'lig'iga va (yoki) mulkiga zarar yetkazganlik uchun o'z fuqarolik javobgarligini "Transport vositalari egalaringing fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq majburiy sug'urta qilishni amalga oshirishi;

transport vositalaringing alkogoldan mast holatda yoki psixoaktiv moddalar ta'siri ostida yoxud o'ta charchoq holatda bo'lgan shaxslar tomonidan boshqarilishiga yo'l qo'ymasligi;

yo'l harakati to'g'risidagi qonunchilikka rioya etishi shart.

36-modd. Transport vositalariga, ular konstruktsiyalarining tarkibiy qismlariga, ehtiyot qismlariga va anjomlarga doir talablar

Transport vositalari, ular konstruktsiyalarining tarkibiy qismlari, ehtiyot qismlar va anjomlar transport vositasining texnik parametrlariga hamda yo'l harakati sohasidagi normativ hujjatlar talablariga muvofiq bo'lishi kerak hamda qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda majburiy ravishda sertifikatlashirishi lozim.

37-modd. Transport vositalaringing texnik holatiga va uskunalariga doir talablar

Transport vositalaringing texnik holati va uskunolari yo'l harakati sohasidagi normativ hujjatlar talablariga muvofiq bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi hududida foydalanishda bo'lgan

va belgilangan tartibda ro'yxatga olingan transport vositalari majburiy ravishda texnik ko'rikdan o'tkaziladi.

Transport vositalarini majburiy ravishda texnik ko'rikdan o'tkazish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasini tomonidan belgilanadi.

38-modd. Transport vositalariga texnik xizmat ko'rsatishga va ularni ta'mirlashga doir talablar

Transport vositalariga texnik xizmat ko'rsatish va ularni ta'mirlash yo'l harakati sohasidagi normativ hujjatlar talablariga muvofiq bo'lishi kerak.

Transport vositalariga texnik xizmat ko'rsatish va ularni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar ko'rsatuvchi yuridik shaxslar hamda yakka tartibdagi tadbirkorlar mazkur xizmatlarni yo'l harakati sohasidagi normativ hujjatlar talablariga muvofiq ko'rsatishi shart.

39-modd. Transport vositalaridan foydalanishni taqiqlash

Yo'l harakati xavfsizligiga tahdid soluvchi texnik nosozliklar mavjud bo'lganda transport vositalaridan foydalanish taqiqlanadi.

Transport vositalaringing texnik nosozliklari ro'yxati va bunday nosozliklar mavjud bo'lganda ulardan foydalanishni taqiqlaydigan shartlar Yo'l harakati qoidalarida belgilanadi.

Transport vositalaridan foydalanishni taqiqlash qonunchilikda belgilangan tartibda Davlat yo'l harakati xavfsizligi xizmatining vakolatli mansabdor shaxslari tomonidan amalga oshiriladi.

40-modd. Transport vositalaridan foydalanishga bog'liq faoliyat bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxslarga doir asosiy talablar

Transport vositalaridan foydalanishga bog'liq faoliyat bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxslar:

haydovchilarning ishini yo'l harakati xavfsizligini ta'minlovchi talablariga muvofiq tashkil etishi;

haydovchilarning qonunchilikda belgilangan mehnat qilish va dam olish rejimiga rioya etishi;

haydovchilarning malakasini oshirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratishi;

transport vositalaringing sozligini va but saqlanishini ta'minlashi, yo'l harakati xavfsizligiga tahdid soluvchi texnik nosozliklar mavjud bo'lganda transport vositalaridan foydalanishga yo'l qo'ymasligi;

o'ziga tegishli transport vositalari ishtirokida sodir etilgan yo'l-transport hodisalaringing va Yo'l harakati qoidalarini buzilishlarining sabablarini tahlil qilishi hamda ularni bartaraf etish choralarini ko'rish;

tibbiyot xodimlarini jalb etgan holda haydovchilarning tibbiy ko'riklarini, haydovchilarning yo'l-transport hodisalarida jabrlanganlarga hodisa yuz bergan joyning o'zida, tibbiyot xodimlari yetib kelguniga qadar birlamchi shoshilinch yordam ko'rsatish bo'yicha ko'nikmalarini takomillashtirishga doir tadbirlarni tashkil etishi va o'tkazishi;

xodim o'z mehnat vazifalarini bajarishi bilan bog'liq bo'lgan holda mehnatda mayib bo'lganligi, kasb kasalligiga chalinganligi yoki sog'lig'ining boshqacha tarzda shikastlanganligi munosabati bilan uning hayotiga yoki sog'lig'iga yetkazilgan zaraming o'rni qoplash bo'yicha o'z fuqarolik javobgarligini "Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunida belgilangan tartibda sug'urtalashi shart.

Transport vositalaridan foydalanishga bog'liq faoliyat bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxslar zimmasida qonunchilikka muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.

Avtomobil transportida yoki yer usti shahar elektr transportida yo'lovchilar, bagaj va yuk tashish faoliyatini amalga oshirayotgan yuridik shaxslar tashishning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash maqsadida haydovchilarga nisbatan yo'l harakati to'g'risidagi qonunchilikka muvofiq qo'shimcha talablar qo'yishi mumkin.

Yuridik shaxslar transport vositalaringing soniga qarab yo'l harakati xavfsizligi bo'yicha xizmatlarni tashkil etadi yoki lavozimlar joriy etadi. Yo'l harakati xavfsizligi xizmati xodimlarining sonini aniqlash normativlari qonunchilikda belgilanadi.

Yuridik shaxslar tomonidan o'tkaziladigan yo'l harakati xavfsizligini ta'minlashga doir tadbirlarni moliyashtirish ularning o'z mablag'lari va qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi.

41-modd. Transport vositalaridan foydalanishga bog'liq faoliyat bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxslarning xodimlarini yo'l harakati xavfsizligi masalalarini bo'yicha o'qitish, ularning malakasini oshirish, ularga yo'l-yo'riq ko'rsatish va ularning bilimlarini tekshirish

Transport vositalaridan foydalanishga bog'liq faoliyat bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxslarning xodimlarini yo'l harakati xavfsizligi masalalarini bo'yicha o'qitish, ularning malakasini oshirish, ularga yo'l-yo'riq ko'rsatish va ularning bilimlarini tekshirish yuridik shaxs tomonidan o'z mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

Yo'l-transport hodisalaringing oldini olish maqsadida yuridik shaxs yo'l harakati xavfsizligi bo'yicha dastlabki, reysdan oldingi, maxsus, mavsumiy va qo'shimcha (navbatdan tashqari) yo'l-yo'riqlar ko'rsatilishini ta'minlashi shart.

Transport vositalaridan foydalanishga bog'liq faoliyat bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxslarning yo'l harakati xavfsizligi xizmati xodimlari O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi tomonidan tasdiqlangan maxsus dasturlar bo'yicha uch yilda kamida bir marta o'z malakasini oshirib, malaka imtihoni topshirishi kerak.

42-modd. Mehnat shartnomasi bo'yicha ishlayotgan haydovchilarning huquqlari

Mehnat shartnomasi bo'yicha ishlayotgan haydovchilar quyidagi huquqlarga ega:

ish beruvchidan harakatlanish yo'nalishi, tashiladigan yuk haqidagi, o'z hayoti va sog'lig'i uchun mavjud bo'lgan tahdid

to'g'risida, shuningdek tashishni amalga oshirish chog'ida zararli va (yoki) xavfli omillar ta'siridan o'zining himoya qilinishiga doir chora-tadbirlar haqida ishonchli axborot olish;

belgilangan talablar muvofiq shaxsiy himoya vositalari, maxsus kiyim-bosh bilan ta'minlanishi;

yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash bo'yicha shart-sharoitlarni yaxshilash bilan bog'liq bo'lgan masalalarni ko'rib chiqishda ishtirok etish;

o'z hayoti va sog'lig'iga tahdid soladigan vaziyat yuzaga kelgan taqdirda, tashishni bevosita rahbarini yoki ish beruvchining boshqa vakilini bu haqda xabardor qilgan holda rad etish;

yo'l harakati xavfsizligi sohasida malakasini oshirish va kasbiy qayta tayyorgarlikdan o'tish;

mehnat vazifalarini bajarish chog'ida o'z sog'lig'iga yetkazilgan zararining o'rni qoplanishi;

ish beruvchining yo'l harakati sohasidagi g'ayrihuquqiy qarorlari va harakatlari (harakatsizligi) ustidan shikoyat qilish.

Mehnat shartnomasi bo'yicha ishlayotgan haydovchilar qonunchilikka muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

43-modd. Yo'l harakati ishtirokchilarining huquq va majburiyatlarini

Yo'l harakati ishtirokchilarining yo'llarda harakatlanishning xavfsiz shart-sharoitlariga bo'lgan huquqlari davlat tomonidan kafollanadi.

Yo'l harakati ishtirokchilarining o'z huquqlarini amalga oshirishi yo'l harakati boshqa ishtirokchilarining huquqlarini cheklamasligi yoki buzmasligi kerak.

Yo'l harakati ishtirokchilari quyidagi huquqlarga ega:

Yo'l harakati qoidalariga muvofiq yo'llarda erkin va monelihsiz harakatlanish;

qonunchilikda nazarda tutilgan o'z huquqlarining cheklanishi yoki buzilishi sabablari to'g'risida maxsus vakolatli davlat organlarining mansabdor shaxslaridan tushuntirishlar olish;

harakatlanishning xavfsiz sharoitlari to'g'risida, yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan texnik vositalar va xizmatlarning sifati haqida to'liq hamda ishonchli axborot olish;

yo'l-transport hodisalari sodir bo'lganda qonunchilikka muvofiq zimmasiga bepul tibbiy yordam ko'rsatish, qutqaruv ishlarni olib borish va boshqa shoshilinch yordam ko'rsatish majburiyati yuklatilgan tashkilotlar hamda mansabdor shaxslardan shunday yordamlar olish;

yo'l-transport hodisasi natijasida o'ziga tan jarohatlari yetkazilgan, transport vositasi va yuk shikastlangan hollarda, qonunchilikda belgilangan tartibda zaraming o'rni qoplanishi, shuningdek ma'naviy zarar kompensatsiya qilinishi;

maxsus vakolatli davlat organlarining va mahalliy davlat hokimiyati organlarining yo'l harakati sohasidagi qonunga xilof qarorlari, shuningdek ular mansabdor shaxslarining qonunga xilof harakatlari (harakatsizligi) ustidan belgilangan tartibda shikoyat qilish;

yo'l belgilarini, chiziqlarini, svetoforlarni o'zgartirish va o'rnatish yuzasidan, yo'l qoplamasining holati haqidagi takliflar hamda yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash masalalariga doir boshqa takliflar bilan tegishli organlarga murojaat etish.

Yo'l harakati ishtirokchilari: yo'l harakati to'g'risidagi qonunchilik talablariga rioya etishi; yo'l harakati sohasidagi maxsus vakolatli davlat organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlari mansabdor shaxslarining qonuniy talablarini bajarishi shart.

Yo'l harakati ishtirokchilari qonunchilikka muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi va ularning zimmasida o'zga majburiyatlar bo'lishi mumkin.

44-modd. Transport vositalarini boshqarish huquqi

Quyidagilarni: mototsikllar, motorollerlarni va boshqa mototransport vositalarini boshqarish huquqi – o'n olti yoshga to'lgan shaxslarga beriladi;

ruxsat etilgan eng ko'p og'irligi 3500 kilogrammdan va o'rindiqlar soni haydovchining o'rindig'idan tashqari sakkiztadan oshmaydigan avtomobillarni boshqarish huquqi, bundan taksi mustasno – o'n sakkiz yoshga to'lgan shaxslarga beriladi;

ruxsat etilgan eng ko'p og'irligi 3500 kilogrammdan oshadigan yuk avtomobillarini boshqarish huquqi – o'n sakkiz yoshga to'lgan shaxslarga beriladi;

taksi sifatida foydalaniladigan avtomobillarni, shuningdek yo'lovchilar tashish uchun mo'ljallangan va haydovchining o'rindig'idan tashqari sakkiztadan ortiq o'rindig'i bo'lgan avtomobillarni, tramvaylar va trolleybuslarni boshqarish huquqi – yigirma bir yoshga to'lgan shaxslarga beriladi;

transport vositalari tarkiblarini boshqarish huquqi – ushbu qismning uchinchi, to'rtinchi va beshinchi xatboshilarida ko'rsatilgan transport vositalarini boshqarish huquqiga ega bo'lgan shaxslarga transport vositasini boshqarish staji o'n ikki oydan kam bo'lmagan taqdirida beriladi.

Transport vositalarini boshqarish huquqi tibbiy tekshiruvdan o'tgan va malaka imtihonlarini topshirgan shaxslarga beriladigan belgilangan namunadagi guvohnoma bilan tasdiqlanadi.

Malaka imtihonlarini topshirish va transport vositalarini boshqarish huquqiga doir guvohnomani berish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasini tomonidan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida belgilangan talablar muvofiq bo'lgan milliy va xalqaro haydovchilik guvohnomalari amal qiladi.

45-modd. Haydovchilarni tayyorlashga doir talablar

Transport vositalarini boshqarish huquqini olish uchun malaka imtihonlarini topshirishga tegishli toifadagi haydovchilar tayyorlashning o'quv rejalari va dasturlarida nazarda tutilgan hajmda tegishli tayyorgarlikdan o'tgan shaxslar qo'yiladi.

Tegishli toifalardagi haydovchilarni tayyorlashning yagona dasturlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasini tomonidan belgilangan tartibda tasdiqlanadi.

46-modd. Transport vositalarini boshqarish huquqining bekor qilinishi

Transport vositalarini boshqarish huquqi quyidagi hollarda bekor qilinadi:

haydovchining sog'lig'i transport vositasini xavfsiz boshqarishga monelik qiladigan tarzda yomonlashganligi tibbiy xulosa bilan tasdiqlanganda;

haydovchi sodir etilgan huquqbuzarlik uchun transport vositasini boshqarish huquqidan mahrum etilganda.

Javobgarlik chorasi sifatida transport vositalarini boshqarish huquqidan mahrum etishga sabab bo'ladigan huquqbuzarliklarning turlari qonunda belgilanadi.

Transport vositalarini boshqarish huquqidan mahrum etish sud tomonidan qo'llaniladi.

6-bob. Yo'l harakati xavfsizligini tibbiy jihatdan ta'minlash

47-modd. Yo'l harakati xavfsizligini tibbiy jihatdan ta'minlash asoslari

Yo'l harakati xavfsizligini tibbiy jihatdan ta'minlash haydovchilarni majburiy ravishda dastlabki va davriy tibbiy ko'riklardan, shu jumladan reysdan oldingi tibbiy ko'riklardan o'tkazish, shuningdek yo'l-transport hodisalarida jabrlangan shaxslarga tibbiy yordam ko'rsatish, yo'l-transport hodisalarida jabrlangan shaxslarga hodisa yuz bergan joyning o'zida, tibbiyot xodimlari yetib kelguniga qadar birlamchi shoshilinch yordam ko'rsatish usullarini yo'l harakati ishtirokchilariga, ichki ishlar organlarining, boshqa ixtisoslashtirilgan bo'linmalarining mansabdor shaxslariga va aholiga davriy ravishda o'rgatish orqali amalga oshiriladi.

Yo'l-transport hodisalarida jabrlangan shaxslarga ko'rsatiladigan tibbiy yordam hodisa yuz bergan joyning o'zida tibbiyot xodimlari yetib kelguniga qadar birlamchi shoshilinch yordam ko'rsatishdan, shuningdek yo'l-transport hodisasi sodir bo'lgan joyda, davolash-profilaktika muassasasiga olib borilayotganda va davolash-profilaktika muassasasida malakali tibbiy yordam ko'rsatishdan iboratdir.

Tibbiy ko'riklarni o'tkazish hamda yo'l-transport hodisalarida jabrlangan shaxslarga tibbiy yordam ko'rsatilishini tashkil etish tartibi, tibbiyot xodimlari yetib kelguniga qadar birlamchi shoshilinch yordam ko'rsatish uchun transport vositasining salonida turishi shart bo'lgan zarur tibbiy ashyolar ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan belgilanadi.

48-modd. Transport vositalarini boshqarishga doir tibbiy qarshi ko'rsatmalar mavjud emasligi yuzasidan tibbiy tekshiruv

Ushbu Qonunning 44-moddasida ko'rsatilgan yoshga to'lgan shaxslar avtomototransport vositalari va shahar elektr transporti vositalari haydovchilarni tayyorlash hamda qayta tayyorlash bo'yicha ta'lim tashkilotlariga hujjatlarni topshirishdan oldin tibbiyot muassasalarida transport vositalarini boshqarishga doir tibbiy qarshi ko'rsatmalar mavjud emasligini aniqlash maqsadida majburiy ravishda tibbiy tekshiruvdan o'tadi.

Tibbiy tekshiruv ushbu Qonunning ilovasida qayd etilgan tibbiy qarshi ko'rsatmalar mavjud emasligini aniqlash maqsadida pulli asosda o'tkaziladi.

Tibbiy tekshiruvdan o'tkazish ruxsat berilgan tibbiyot muassasalarining ro'yxati, tibbiy tekshiruvni o'tkazganlik uchun tariflarning miqdorlari va tibbiy tekshiruv natijalariga doir xulosaning shakli O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan belgilanadi.

49-modd. Transport vositalarini boshqarishga doir tibbiy qarshi ko'rsatmalar mavjud emasligi yuzasidan tibbiy tekshiruvdan o'tish tartibi

Tibbiy tekshiruv o'ziga tibbiy tekshiruvni o'tkazish ruxsat etilgan tibbiyot muassasasi tomonidan, tekshiruvdan o'tayotgan shaxs shaxsini tasdiqlovchi hujjatni (identifikatsiyalovchi ID-kartasini, pasportini, shaxsini tasdiqlovchi boshqa hujjatini) ko'rsatgach o'tkaziladi.

Tibbiy tekshiruvni o'tkazish uchun tibbiyot muassasasi tomonidan maxsus tibbiy komissiya tuziladi. Tibbiy komissiya tarkibi tibbiyot muassasasining ma'muriyati tomonidan tasdiqlanadi.

Tibbiy komissiya tibbiy tekshiruvdan o'tkazish bilan bog'liq ma'lumotlarni aks ettirish uchun tibbiy tekshiruvdan o'tayotgan shaxslarning ambulatoriya kartalarini yuritadi.

Ambulatoriya kartasida tibbiy tekshiruvni o'tkazishda ishtirok etayotgan barcha shifokorlar va mutaxassislarining tibbiy tekshiruvdan o'tayotgan shaxs xususidagi tibbiy xulosalari ko'rsatilishi kerak.

Tibbiy tekshiruv natijalariga ko'ra tibbiyot muassasasi transport vositalarini boshqarishga doir tibbiy qarshi ko'rsatmalar mavjudligi (mavjud emasligi) to'g'risidagi tibbiy komissiya xulosasini elektron shaklda rasmiylashtiradi va axborotning maxfiyligi ta'minlangan holda xulosani tibbiy tekshiruv o'tkazilgan paytdan e'tiboran bir ish kuni ichida Davlat yo'l harakati xavfsizligi xizmatiga axborot tizimi orqali yuboradi.

Tibbiy komissiya xulosasining ko'chirma nusxasi tibbiy tekshiruvdan o'tgan shaxsga beriladi.

Tibbiyot muassasalariga tibbiy yordam so'rab murojaat qilgan fuqarolarda ushbu Qonunning ilovasida qayd etilgan tibbiy qarshi ko'rsatmalar aniqlangan taqdirda, mazkur axborot uning maxfiyligi ta'minlangan holda, tibbiyot muassasalarini tomonidan Davlat yo'l harakati xavfsizligi xizmatiga axborot tizimi orqali yuboriladi.

Tibbiy komissiyaning transport vositalarini boshqarishga doir tibbiy qarshi ko'rsatmalar mavjudligi (mavjud emasligi) to'g'risidagi xulosalarini (axborotini) kiritish, ularning hibosini yuritish bo'yicha axborot tizimining ishlash tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasini tomonidan belgilanadi.



## O'zbekiston Respublikasining QONUNI

## Yo'l harakati to'g'risida

(Davomi. Boshlanishi 1, 2, 3, 4-betlarda).

## 7-bob. Yakunlovchi qoidalar

## 50-modd. Yo'l harakati sohasida ilm-fan yutuqlaridan foydalanish

Yo'l harakatini tashkil etish samaradorligini, yo'llarning o'tkazuvchanlik qobiliyatini oshirish, yo'l harakati ishtirokchilari uchun qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida maxsus vakolatli davlat organlari tizimida yo'l harakati sohasida ilmiy tadqiqotlarni amalga oshiruvchi tuzilmalar tashkil etilishi mumkin.

Ilm-fan yutuqlaridan, yo'l harakatini tashkil etish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar natijalaridan maxsus vakolatli davlat organlari tomonidan yo'l harakatini tashkil etish chog'ida, shu jumladan yo'l harakatini tashkil etishning axborot tizimlari va texnik vositalarini takomillashtirish uchun foydalaniladi.

## 51-modd. Yo'l harakati sohasidagi davlat nazorati

Yo'l harakati sohasidagi davlat nazorati yo'l harakati to'g'risidagi qonunchilik talabari buzilishlarini bartaraf etish haqidagi taqdimnomalarning bajarilishini o'rganish, yo'l harakatini tashkil etish borasida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida amalga oshiriladi.

Yo'l harakati sohasidagi davlat nazoratini tegishli davlat organlari hamda tashkilotlar qonunchilikda belgilangan hollarda va tartibda amalga oshiradi.

## 52-modd. Yo'l harakati sohasidagi tadbirlarni moliyaviy va moddiy-texnika jihatidan ta'minlash

Yo'l harakati sohasidagi tadbirlarni moliyaviy jihatdan ta'minlash O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag'lari va qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi.

Yo'l harakati sohasidagi tadbirlarni moddiy-texnika jihatidan ta'minlash tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

## 53-modd. Nizolarni hal etish

Yo'l harakati sohasidagi nizolar qonunchilikda belgilangan tartibda hal etiladi.

## 54-modd. Yo'l harakati to'g'risidagi qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlik

Yo'l harakati to'g'risidagi qonunchilikni buzganlikda aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.

## 55-modd. O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo'shimchalar kiritish, shuningdek ayrim qonun hujjatlarini o'z kuchini yo'qotgan deb topish

1. O'zbekiston Respublikasining 1994-yil 22-sentabrda qabul qilingan 2015-XII-sonli Qonuni bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining (O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnoma, 1995-yil, № 3, 6-modd; O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnoma, 1995-yil, № 9, 193-modd; 2016-yil, № 1, 2-modd; 1996-yil, № 5-6, 69-modd, № 9, 144-modd; 1997-yil, № 2, 56-modd; № 4-5, 126-modd; № 9, 241-modd; 1998-yil, № 3, 38-modd; № 5-6, 102-modd; № 9, 181-modd; 1999-yil, № 1, 20-modd; № 5, 124-modd; № 9, 229-modd; 2000-yil, № 5-6, 153-modd; № 7-8, 217-modd; 2001-yil, № 1-2, 23-modd; № 9-10, 165, 182-modd; 2002-yil, № 1, 20-modd; № 9, 165-modd; 2003-yil, № 1, 8-modd; № 5, 67-modd; № 9-10, 149-modd; 2004-yil, № 1-2, 18-modd; № 5, 90-modd; № 9, 171-modd; 2005-yil, № 1, 18-modd; O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnoma, 2005-yil, № 9, 312-modd; № 12, 413, 417, 418-modd; 2006-yil, № 6, 261-modd; № 9, 498-modd; № 10, 536-modd; № 12, 656, 659-modd; 2007-yil, № 4, 158, 159, 164, 165-modd; № 9, 416, 421-modd; № 12, 596, 604, 607-modd; 2008-yil, № 4, 181, 189, 192-modd; № 9, 486, 488-modd; № 12, 640, 641-modd; 2009-yil, № 1, 1-modd; № 9, 334, 335, 337-modd; № 10, 380-modd; № 12, 462, 468, 470, 472, 474-modd; 2010-yil, № 5, 175, 179-modd; № 6, 231-modd; № 9, 335, 339, 341-modd; № 10, 380-modd; № 12, 468, 473, 474-modd; 2011-yil, № 1, 1-modd; № 4, 104, 105-modd; № 9, 247, 252-modd; № 12/2, 365-modd; 2012-yil, № 4, 108-modd; № 9/1, 242-modd; № 12, 336-modd; 2013-yil, № 4, 98-modd; № 10, 263-modd; 2014-yil, № 1, 2-modd; № 5, 130-modd; № 9, 244-modd; № 12, 341, 343-modd; 2015-yil, № 6, 228-modd; № 8, 310, 312-modd; № 12, 452-modd; 2016-yil, № 1, 2-modd; № 4, 125-modd; № 9, 276-modd; № 12, 383, 385-modd; 2017-yil, № 4, 137-modd; № 6, 300-modd; № 9, 510-modd; № 10, 605-modd; 2018-yil, № 1, 1, 4, 5-modd; № 4, 224-modd; № 7, 430, 431, 432-modd; № 10, 671, 673, 679-modd; 2019-yil, № 1, 1, 3, 5-modd; № 2, 47-modd; № 3, 161, 165, 166-modd; № 5, 259, 261, 267, 268-modd; № 7, 386-modd; № 8, 469, 471-modd; № 9, 591, 592-modd; № 10, 674, 676-modd; № 11, 787, 791-modd; № 12, 880, 891-modd; 2020-yil, № 1,

4-modd; № 3, 203, 204-modd; № 7, 449-modd; № 9, 539, 540-modd; № 10, 593, 596-modd; № 11, 651-modd; № 12, 691-modd; 2021-yil, № 1, 5, 7, 12, 13, 14-modd; № 2, 142-modd; № 3, 217-modd; № 4, 290, 293-modd; 4-songa ilova, № 8, 800, 802, 803-modd; № 9, 903-modd; № 10, 966, 967, 968, 973-modd; № 11, 1066-modd; 2022-yil, № 1, 1, 2-modd; № 2, 80, 81-modd; № 3, 215, 216-modd; № 4, 337-modd; № 5, 464, 465, 466, 467-modd; № 8, 787-modd; № 10, 981, 984-modd; № 12, 1189-modd) 147-moddasiga quyidagi qo'shimchalar kiritilsin:

nomi "qoidalarini buzish" degan so'zlardan keyin "yo'l harakatini tashkil etish talablarini bajarmaslik" degan so'zlar bilan to'ldirilsin;

ikkinchi qism "choralarini ko'rmaslik" degan so'zlardan keyin "shuningdek yo'l harakatini tashkil etish talablarini bajarmaslik" degan so'zlar bilan to'ldirilsin.

2. Quyidagilar o'z kuchini yo'qotgan deb topilsin:

1) O'zbekiston Respublikasining 1999-yil 19-avgustda qabul qilingan "Yo'l harakati xavfsizligi to'g'risida"gi 818-I-sonli Qonuni (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnoma, 1999-yil, № 9, 215-modd);

2) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1999-yil 19-avgustda qabul qilingan "Yo'l harakati xavfsizligi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini amalga kiritish haqida"gi 819-I-sonli Qarori (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnoma, 1999-yil, № 9, 216-modd);

3) O'zbekiston Respublikasining 2006-yil 6-aprelda qabul qilingan "Mahsulotlar va xizmatlarni sertifikatlashtirish tartib-taomillari soddalashtirilganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RBQ-31-sonli Qonunining (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnoma, 2006-yil, № 4, 157-modd) 5-moddasi;

4) O'zbekiston Respublikasining 2007-yil 5-aprelda qabul qilingan "Yo'l harakati xavfsizligi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartishlar kiritish haqida"gi O'RBQ-82-sonli Qonuni (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnoma, 2007-yil, № 4, 155-modd);

5) O'zbekiston Respublikasining 2013-yil 10-aprelda qabul qilingan "Yo'l harakati xavfsizligi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi O'RBQ-348-sonli Qonuni (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnoma, 2013-yil, № 4, 94-modd);

6) O'zbekiston Respublikasining 2015-yil 29-dekabrda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish

to'g'risida"gi O'RBQ-396-sonli Qonunining (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnoma, 2015-yil, № 12, 452-modd) 18-moddasi;

7) O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-aprelda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartishlar kiritish to'g'risida"gi O'RBQ-683-sonli Qonunining (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnoma, 2021-yil, 4-songa ilova) 108-moddasi;

8) O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 12-oktabrda qabul qilingan "Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi O'RBQ-721-sonli Qonunining (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnoma, 2021-yil, № 10, 968-modd) 15-moddasi.

## 56-modd. Ushbu Qonunning ijrosini, yetkazilishini, mohiyati va ahamiyati tushuntirilishini ta'minlash

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, Transport vazirligi va boshqa manfaatdor tashkilotlar ushbu Qonunning ijrosini, ijrochilarga yetkazilishini hamda mohiyati va ahamiyati aholi o'rtasida tushuntirilishini ta'minlasin.

## 57-modd. Qonunchilikni ushbu Qonunga muvofiqlashtirish

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi: ushbu Qonun 20-moddasining ikkinchi qismi talabari ham hisobga olinadigan Tashqi reklama va axborot obyektlari (konstruksiylari) xavfsizligining umumiy texnik reglamentini ishlab chiqish va tasdiqlas; hukumat qarorlarini ushbu Qonunga muvofiqlashtirs; respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari ushbu Qonunga zid bo'lgan o'z normativ-huquqiy hujjatlarini qayta ko'rib chiqishlari va bekor qilishlarini ta'minlasin.

## 58-modd. Ushbu Qonunning kuchga kirishi

Ushbu Qonun rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran olti oy o'tgach kuchga kiradi.

## O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh. MIRZIYOEV

Toshkent shahri,  
2024-yil 19-yanvar  
№ O'RBQ-900

"Yo'l harakati to'g'risida"gi  
O'zbekiston Respublikasi Qonuniga  
ilova

## Transport vositalarini boshqarishga doir tibbiy qarshi ko'rsatmalar RO'YXATI

No	Kasalliklarning nomi
<b>I. Narkologik kasalliklar</b>	
<b>Haydovchilikning barcha toifalaridagi haydovchilar, shuningdek tramvay va trolleybuslar haydovchilari uchun</b>	
1.	Barcha narkologik kasalliklar, bundan tamakiga qaramlik mustasno
<b>II. Ruhiy kasalliklar</b>	
<b>Haydovchilikning A, V, VE toifalaridagi haydovchilar uchun</b>	
1.	Organik, shu jumladan simptomatik ruhiy buzilishlar
2.	Shizofreniya, shizotipik va vasvasaviy buzilishlar
3.	Affektiv buzilishlar
4.	O'rtal, og'ir va chuqur darajadagi aqli zaiflik
<b>Haydovchilikning S, D, CE, DE toifalaridagi haydovchilar, shuningdek tramvay va trolleybuslar haydovchilari uchun</b>	
1.	Organik, shu jumladan simptomatik ruhiy buzilishlar
2.	Shizofreniya, shizotipik va vasvasaviy buzilishlar
3.	Affektiv buzilishlar
4.	Yetuklik yoshdagi shaxs va xulq-atvor buzilishlari
5.	Barcha darajadagi aqli zaiflik
<b>III. Yurak-qon tomir kasalliklari</b>	
<b>Haydovchilikning A, V, VE toifalaridagi haydovchilar uchun</b>	
1.	Aortal teshik stenoz <i>Chap qorinchaning haydash fraksiyasi 35 foizdan past bo'lgan, III funksional klassli qon aylanishi yetishmovchiligi</i>
2.	Aortal klapan yetishmovchiligi <i>Chap qorinchaning haydash fraksiyasi 35 foizdan past bo'lgan, III funksional klassli qon aylanishi yetishmovchiligi</i>
3.	Mitral teshik stenoz <i>Chap qorinchaning haydash fraksiyasi 35 foizdan past bo'lgan, III funksional klassli qon aylanishi yetishmovchiligi</i>
4.	Mitral klapan yetishmovchiligi <i>Chap qorinchaning haydash fraksiyasi 35 foizdan past bo'lgan, III funksional klassli qon aylanishi yetishmovchiligi</i>
5.	Qon aylanishi yetishmovchiligi <i>Chap qorinchaning haydash fraksiyasi 35 foizdan past bo'lgan, III funksional klassli qon aylanishi yetishmovchiligi</i>
6.	Aorta anevrizm <i>Aorta o'zagining diametri 5,5 santimetrdan katta ekanligi</i>
7.	Kardioverter-defibrilyator implantatsiyasi
8.	Qorinchalar taxikardiyasi
9.	O'zgaruvchan gemodinamika bilan kechadigan yurak bo'lmalchalari fibrilyatsiyasi
10.	Hushini yo'qotish, bosh aylanishi bilan kechadigan qorinchalar usti taxikardiyasi, Volf-Parkinson-Vayt sindromi
11.	II darajali atriioventrikulyar tugunning hushini yo'qotish bilan kechadigan qamali
12.	III darajali atriioventrikulyar tugun qamali
<b>Haydovchilikning C, D, CE, DE toifalaridagi haydovchilar, shuningdek tramvay va trolleybuslar haydovchilari uchun</b>	
1.	Aortal teshik stenoz <i>Chap qorinchaning haydash fraksiyasi 40 foizdan past bo'lgan, III funksional klassli qon aylanishi yetishmovchiligi</i>
2.	Aortal klapan yetishmovchiligi <i>Chap qorinchaning haydash fraksiyasi 40 foizdan past bo'lgan, III funksional klassli qon aylanishi yetishmovchiligi</i>
3.	Mitral teshik stenoz <i>Chap qorinchaning haydash fraksiyasi 40 foizdan past bo'lgan, III funksional klassli qon aylanishi yetishmovchiligi</i>

4.	Mitral klapan yetishmovchiligi <i>Chap qorinchaning haydash fraksiyasi 40 foizdan past bo'lgan, II va III funksional klassli qon aylanishi yetishmovchiligi</i>
5.	Qon aylanishi yetishmovchiligi <i>Chap qorinchaning haydash fraksiyasi 40 foizdan past bo'lgan, II va III funksional klassli qon aylanishi yetishmovchiligi</i>
6.	Aorta anevrizmasi <i>Aorta o'zagining diametri 5,5 santimetrdan katta ekanligi</i>
7.	Kardioverter-defibrilyator implantatsiyasi
8.	Qorinchalar taxikardiyasi
9.	O'zgaruvchan gemodinamika bilan kechadigan yurak bo'lmalchalari fibrilyatsiyasi
10.	Hushini yo'qotish, bosh aylanishi bilan kechadigan qorinchalar usti taxikardiyasi, Volf-Parkinson-Vayt sindromi
11.	Sinkope
12.	III darajali atriioventrikulyar tugun qamali
13.	Gis tutami oyoqchalarning tranzitor qamali
14.	Gis tutami oyoqchasining doimiy qamali
15.	Nosinus ritmi mitral yoki aortal klapan bioprotezi yoxud mitral va (yoki) aortal klapan plastikasi <i>Chap qorinchaning haydash fraksiyasi 40 foizdan past bo'lgan, III funksional klassli qon aylanishi yetishmovchiligi</i>
<b>IV. Nevrologik kasalliklar</b>	
<b>Haydovchilikning barcha toifalaridagi haydovchilar, shuningdek tramvay va trolleybuslar haydovchilari uchun</b>	
1.	Epilepsiya (tutqanoq)
2.	Sinkoplar
3.	Gipersomniya
4.	Uyqu apnoesi
5.	Markaziy asab tizimining demiyelinizatsiya qiluvchi kasalliklari
6.	Ishemik va gemorragik insult asoratlari (harakat, sezgi va nutq buzilishlari bilan kechadigan asoratlari)
7.	Kuchayib boruvchi mushak distrofiyasi
8.	Paroksizmal mioplegiya
9.	Miasteniya
10.	Asosan markaziy asab tizimiga ta'sir qiluvchi tizimli atrofiyalalar
11.	Neyromuskulyar birikmalar va mushaklar kasalliklari
12.	Harakatning ekstrapiramidal va boshqa buzilishlari
13.	Menyer kasalligi
14.	Miyelopolidradikulonevrit asoratlari (Giyen-Barre asorati)
15.	Tarqoq skleroz
16.	Autizm
17.	Daun kasalligi
18.	Alsgeymer kasalligi
19.	Qon tomir demensiyasi
20.	Yonbosh amiotrofik skleroz
21.	Parkinson kasalligi (og'ir darajasi)
22.	Bolalar serebral falajligi (kattalarda)
23.	Miotoniya (barcha turlari)
24.	Ensefalit, miyelit va ensefalomelit asoratlari (harakat, sezgi va nutq buzilishlari bilan kechadigan asoratlari)
25.	Kelib chiqishi aniq bo'lmagan polinevropatiya
26.	Tizimli degeneratsiyalar (miya ataksiyalari, Gentington xoreyasi)

<b>V. Neyroxirurgik kasalliklar</b>	
<b>Haydovchilikning barcha toifalaridagi haydovchilar, shuningdek tramvay va trolleybuslar haydovchilari uchun</b>	
1.	Bemor bosh miyasi, orqa miyasi, kranial nervlarning va asab tizimi boshqa qismlarining nevrologik qoldiq o'zgarishi o'smalari
2.	Bosh miya va orqa miyaning nevrologik qoldiq o'zgarishlar mavjud bo'lgan jarohati
3.	Tutqanoq va nevrologik qoldiq o'zgarishlar (anevrizmalar, arteriovenoz malformatsiyalar, kavernomalalar) mavjud bo'lgan bosh miya qon tomir kasalliklari
4.	Tutqanoq va nevrologik qoldiq o'zgarishlar mavjud bo'lgan parazitlar yangi hosilalar, granuloma, intrakranial va intravertebral abscesslar
5.	Tutqanoq va nevrologik qoldiq o'zgarishlar mavjud bo'lgan gidrotsefaliya
6.	Bosh miya va orqa miyaning kasalliklarda nevrologik o'zgarishlar mavjud bo'lgan tug'ma nuqsonlari
<b>VI. Travmatologik ortopedik kasalliklar</b>	
<b>Haydovchilikning barcha toifalaridagi haydovchilar, shuningdek tramvay va trolleybuslar haydovchilari uchun</b>	
1.	Yuqori mucha amputatsiyasi
2.	Pastki muchalar amputatsiyasi
3.	Umurtqa pog'onasi bo'yin qismining boshning yon-atrofga harakatlanishi va o'g'irlashini cheklaydigan kasalliklari
4.	Jarohatdan keyingi gempilegiyalalar
5.	Yuqori mucha falajligi va parezi
6.	Pastki mucha falajligi va parezi
<b>VII. Ko'z kasalliklari</b>	
<b>Haydovchilikning barcha toifalaridagi haydovchilar, shuningdek tramvay va trolleybuslar haydovchilari uchun</b>	
1.	Haydovchilikning A, V, VE, C, SE toifalaridagi haydovchilar uchun – ko'rish o'tkirligi yaxshi ko'radigan ko'zda 0,6 dan (60 foizdan) past va yomonroq ko'radigan ko'zda 0,2 dan (20 foizdan) past. Haydovchilikning D, DE toifalaridagi haydovchilar, tramvay va trolleybuslar haydovchilari uchun – ko'rish o'tkirligi yaxshi ko'radigan ko'zda 0,8 dan (80 foizdan) past va yomonroq ko'radigan ko'zda 0,4 dan (40 foizdan) past. Ruxsat etiladigan korreksiya miopiya va gipermetropiya kasalliklarida, shu jumladan kontaktli linzalalar bilan 8,0 dioptriya, astigmatizm 3,0 dioptriya (sfera va silindring yig'indisi 8,0 dioptriyadan oshmasligi kerak)
2.	Izoh. Yo'nalishli taksirlarning haydovchilari va tezkor xizmatlar transport vositalarining haydovchilari (tez tibbiy yordam xizmati, yong'in-qutqaruv bo'linmalari, ichki ishlar organlari, avariya-qutqaruv xizmatlari, harbiy transport vositasini boshqaruvchi) uchun – ko'rish o'tkirligi yaxshi ko'radigan ko'zda 0,8 dan (80 foizdan) past va yomonroq ko'radigan ko'zda 0,4 dan (40 foizdan) past. Ruxsat etiladigan korreksiya miopiya va gipermetropiya kasalliklarida, shu jumladan kontaktli linzalalar bilan 8,0 dioptriya, astigmatizm 3,0 dioptriya (sfera va silindring yig'indisi 8,0 dioptriyadan oshmasligi kerak)
3.	Ko'rish qobiliyatining jiddiy buzilishi bilan kechadigan ko'z pardalarining surunkali kasalligi, qovoqlarning, shu jumladan ular shilliq pardalarining turg'un o'zgarishlari, ko'rishga xalaqit beruvchi yoki ko'z olmasining harakatlanishini cheklaydigan qovoq mushaklari parezi, ptotzi
4.	Jarohatdan keyingi bilan davolab bo'lmaydigan ko'z yoshlanishi
5.	Paralitik g'ilaylik hamda ko'zlar hamjihat harakatlanishining boshqa buzilishlari
6.	Har qanday etiologiyali g'ilaylik oqibatidagi turg'un diplopiya
7.	Spontan nistagm
8.	Har qanday meridianidagi periferik ko'rish maydonining 20 gradusdan ko'p tarzda torayishi
9.	Rang ajratishdagi buzilish (axromatopsiya, monoxromaziya, dixromaziya, protanopiya, deytanopiya)
9.	Ko'radigan ko'zning ko'rish o'tkirligidan qat'i nazar, bir ko'zning ko'rmasligi



# O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining qirq to'qqizinchi yalpi majlisi to'g'risida

## AXBOROT

Prezidentimiz tashabbusi bilan qabul qilingan "O'zbekiston — 2030" strategiyasi esa boshlangan islohotlarimizni sifat va mazmun jihatidan yangi bosqichga olib chiqishi bilan ahamiyatlidir.

Bunday faol yangilanishlar sharoitida parlament, xususan, Senatning ham o'rni va roli tobora oshib bormoqda. Ayniqsa, senatorlar o'tgan yilda hududlarda sermahsul faoliyat yuritib, dolzarb ijtimoiy-iqtisodiy masalalar yechimiga o'z hisslarini qo'shdi.

Qonunchilik yo'nalishida jami 91 ta qonun ko'rib chiqildi. Qonunlarni tizimli tahlil qilish va ularni takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish amaliyoti davom ettirilib, bir qator qonunlar ijrosi, huquqni qo'llash amaliyoti va qonunosti hujjatlarining qabul qilinishini monitoring qilish yakunlari bo'yicha Hukumat oldiga tegishli vazifalar qo'yildi.

Parlament nazorati doirasida Senat yalpi majlislarida 8 marotaba hukumat a'zolari, davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, hududlar rahbarlarining axborotlari eshittildi.

Senatorlar hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, aholining haqli e'tirozlariga sabab bo'layotgan masalalarni o'rganishga alohida e'tibor bergan holda, senatorlar tomonidan Senat yalpi majlislari muhokamasiga 17 ta muammoli masala olib chiqildi va ulardan 9 tasi ijobiy hal etildi. Qolgan 8 tasi bo'yicha hozirgi vaqtda muammolarni ijobiy hal etish choralari ko'rilmoqda.

Shuningdek, budjetni ijtimoiy yo'naltirish, jumladan, mablag'larni hududlarda aholini tashvishga solayotgan dolzarb masalalarni hal qilishga yo'naltirishda Senat faoli ishtirok etmoqda.

Yil davomida Senatning hududlarda olib borgan o'rganishlari va ularning yakunlari asosida hukumatga kiritgan takliflari asosida joylardagi muammoli masalalarni (maktab, bog'cha, kasalxon, suvdan foydalanish, yo'l qurish va h.k.) hal qilishga umumiy hisobda 1 trillon so'mdan ziyod budjet mablag'lari yo'naltirilishi ta'minlandi.

Senat qo'mitalari tomonidan nazorat-tahlil faoliyati doirasida hududlarda 80 ga yaqin o'rganishlar o'tkazilib, tegishli qarorlar qabul qilindi.

Xalqaro parlament munosabatlari doirasida xorijiy davlatlar, xalqaro tashkilotlar, xalqaro moliya tuzilmalari va biznes vakillari bilan o'tkazilgan 200 dan ziyod uchrashuvlarda hamkorlik istiqbolari muhokama qilindi.

Ikki tomonlama parlament aloqalari va hamkorlikni rivojlantirish maqsadida parlamentlararo guruhlarining 10 ta yig'ilishi bo'lib o'tdi. Senat tashabbusi bilan 4 ta xalqaro tadbir o'tkazildi.

Mahalliy Kengashlar faoliyatiga uslubiy-amaliy yordam ko'rsatish uchun mahalliy Kengashlar deputatlari uchun muhtazam ravishda o'quv kurslari, seminarlar tashkil etildi.

Mahalliy Kengashlar faoliyatini uslubiy jihatdan qo'llab-quvvatlash maqsadida xalq deputatlari mahalliy Kengashlari tomonidan mahalliy budjet ijrosi ustidan deputatlik nazoratini tashkil etish yuzasidan hamda parlament diplomatiyasi bo'yicha amaliy qo'llanmalar ishlab chiqildi.

Bundan tashqari, Senat Raisi boshchiligidagi korpussiya, odam savdosi va majburiy mehnatga qarshi kurashish, xotin-qizlar masalalari, gender tenglikni ta'minlash, xalqaro reytinglar bilan ishlash kabi qator dolzarb yo'nalishlarda milliy tuzilmalar faoliyati izchil davom ettirildi.

Qayd qilingan yo'nalishlarda olib borilgan islohotlar natijasida mamlakatimiz uchun ustuvor etib belgilangan nufuzli xalqaro reytinglarda O'zbekistonning o'rni ko'tarildi.

Majlis davomida Senat faoliyati yakunlari ko'rib chiqilgach, 2024-yilga mo'ljallangan parlament yuqori palatasining ustuvor vazifalari ham belgilab olindi.

Shundan so'ng, Senatning qirq to'qqizinchi yalpi majlisida "Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun senatorlar tomonidan muhokama etildi.

Ta'kidlanganidek, 2023-yilning aprel oyida umumxalq referendumi orqali O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi qabul qilindi. Yangi O'zbekistonni barpo etishning konstitutsiyaviy asoslari mustahkamlandi.

Shu bilan birga, qator qonunlar, Prezident Farmon va qarorlari hamda Hukumat qarorlari qabul qilindi

jamiyatimizning barcha sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarni huquqiy jihatdan ta'minlash choralari ko'rilmoqda.

Konstitutsiyamizda muhrlangan ustuvor maqsad va vazifalarni amalga oshirish yuzasidan Oliy Majlis palatalari tomonidan o'z faoliyatlarini tartibga soluvchi O'zbekiston Respublikasi qonunlari yangi tahrirdagi Konstitutsiyaga muvofiqlashtirilmoqda.

Xususan, parlament palatalarining faoliyatidagi paralellikni va bir-birini takrorlovchi vakolatlarni aniqlashtirishda, Senat a'zolari jami 100 nafardan 65 nafarga qisqartirilmoqda. Bunda har bir ma'muriy-hududiy birlikdan 4 nafardan senator saylanishi, 9 nafari Prezident tomonidan tayinlanishi belgilanmoqda.

Shuningdek, Qonunchilik palatasi Spikeri o'rinbosarlari soni 7 tadan 2 taga qisqartirilmoqda. Bunda Spikerining o'rinbosarlari fraksiya a'zosi bo'lishi mumkin emasligi hamda lavozimda bo'lish davrida siyosiy partiyadagi a'zolikni to'xtatib turishi belgilanmoqda. Bundan tashqari, Qonunchilik palatasi va Senatning o'zini o'zi tarqatib yuborish vakolati kiritilmoqda. Bunday holatda Qonunchilik palatasiga yangi saylov 2 oy mobaynida o'tkazilishi, Senatning yangi tarkibi esa 1 oy mobaynida shakllantirishi nazarda tutilmoqda.

Yana bir muhim jihat, 100 ming nafardan kam bo'lmagan fuqarolar, Senat, Ombudsman va Markaziy saylov komissiyasi qonunchilik takliflarini Qonunchilik palatasiga kiritishi mumkinligi hamda parlament tekkshiruvini o'tkazish Qonunchilik palatasi deputatlari va Senat a'zolari orasidan tenglik asosida tuziladigan birgalikdagi maxsus komissiyasi tomonidan o'tkazilishi belgilanmoqda.

Qonunning yuqorida qayd etilgan Senat a'zolari soni va qo'mitalar nomlarini hamda Qonunchilik palatasi Spikerining o'rinbosarlari soni va maqomini belgilovchi qoidalari 2024-yilga navbatdagi chaqiriqdagi Oliy Majlis palatalari ishi boshlanganidan amalga kiritilishi belgilanmoqda.

Senatorlar ta'kidlaganidek, mazkur qonunning qabul qilinishi umumxalq referendumida qabul qilingan yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning normalarni amalga oshirishga, shuningdek, qonunlar qoidalarini Konstitutsiyaga muvofiqlashtirishga xizmat qiladi.

Muhokama yakunida qonun senatorlar tomonidan ma'qullandi.

Shuningdek, yalpi majlisda senatorlar "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga jinoyatchilikka qarshi kurashish bo'yicha faoliyatning huquqiy asoslarini takomillashtirishga qaratilgan qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi qonunni ko'rib chiqildi.

Ta'kidlanganidek, respublikamizda fuqarolarning huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilish, shaxs, jamoat va davlat xavfsizligini ta'minlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi hamda jinoyatchilikka qarshi kurashish bo'yicha yaxlit huquqiy tizim yaratildi.

Mamlakatimizda qonun ustuvorligini ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan islohotlar huquqni muhofaza etuvchi organlar oldiga yangi vazifalarni qo'yimoqda hamda ushbu organlarning o'z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish bo'yicha tezkor va samarali qarorlar qabul qilishi uchun mustahkam huquqiy asos yaratishga qaratilgan.

Mazkur qonun bilan "Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risida"gi Qonunga ma'lumotlarni to'plash, tezkor kiritish, niqoblangan operatsiya kabi tezkor-qidiruv tadbirlarini amalga oshirish tartibini aniqlashtirishni, shuningdek, axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatchilikka qarshi kurashishning huquqiy asoslarini mustahkamlashni, tezkor-qidiruv tadbirlari axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llagan holda, shu jumladan, kibermakonda va (yoki) uning imkoniyatlaridan foydalangan holda o'tkazilishi mumkin ekanligini belgilashni nazarda tutuvchi qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritilmoqda.

Shu bilan birga, "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi Qonunga jinoyatlarining holatlarini aniqlash, jinoyatlarni sodir etgan shaxslarni aniqlash va qidirish, shuningdek, jazoni o'tashdan bo'yin tovlayotgan yoki bedarak yo'qolgan shaxslarni qidirish maqsadida ommaviy axborot vositalarining imkoniyatlaridan bepul foydalanishga doir ichki ishlar organlarining huquqlarini aniqlashtirishni nazarda tutuvchi o'zgartirish kiritilmoqda.

Bundan tashqari, "Ma'muriy qamoqni o'tash tartibi to'g'risida"gi Qonunga ma'muriy qamoqqa olingan shaxslarni qabul qilish va saqlash uchun mo'ljallangan maxsus muassasada tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshirish

mumkin ekanligini belgilovchi qo'shimcha kiritilmoqda.

Senatorlar ta'kidlaganidek, ushbu qonun jamoat tartibini saqlashga va fuqarolar xavfsizligini yanada ishonchli ta'minlashga, shuningdek, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish bo'yicha tadbirlar samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, yalpi majlisda "Ayrim toifadagi jinoyi qilmishlar uchun javobgarlik liberalashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga hamda O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi qonun muhokama qilindi.

Senatorlar qayd etganidek, mamlakatimizda sud-huquq tizimini yanada demokratlashtirish va erkinlashtirish, sud, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat organlari faoliyatini samaradorligini oshirish hamda jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlash va qonuniylikni mustahkamlash borasida qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Insonparvarlik, adolatparvarlik g'oyalariga asoslangan qonunlar qabul qilinmoqda.

Muhokama qilingan qonun bilan Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksga uchuvchisiz uchadigan apparatlarni, ularning butlovchi va ehtiyot qismlarini o'z ichki qismlarini qonunga xilof ravishda olib kirish, o'tkazish, olish, saqlash yoki ulardan foydalanish bilan bog'liq ma'muriy javobgarlikni nazarda tutuvchi yangi norma kiritilmoqda.

Xususan, ma'muriy huquqbuzarlik natijasida aniqlangan uchuvchisiz uchadigan apparatlar davlat hisobiga musodara qilinishi, qonunga xilof ravishda harakatlarni sodir etgan shaxs, agar u uchuvchisiz uchadigan apparatlarni, ularning butlovchi va ehtiyot qismlarini o'z ixtiyori bilan topshirsa, javobgarlikdan ozod qilinishi hamda ushbu toifadagi ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlar jinoyat ishlari bo'yicha sudlar tomonidan ko'rib chiqilishi belgilanmoqda.

Shuningdek, Jinoyat kodeksining 244-moddasida belgilangan sanksiyalarga muqobil jarima, axloq tuzatish ishlari, ozodlikni cheklash kabi jazo turlari kiritilmoqda, ya'ni shunday harakatlar uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin sodir etilgan bo'lsa, jinoyi javobgarlik nazarda tutilmoqda.

Senatorlarning fikricha, qonunning amaliyotga tatbiq etilishi natijasida qonunga xilof ravishda ushbu qilmishni birinchi marotaba sodir etgan shaxslar uchun jinoyi javobgarlik emas, balki ma'muriy javobgarlik belgilanib, bu, o'z navbatida, jamiyatimizda ushbu turdagi jinoyatlar ko'payishini oldini olishga xizmat qiladi.

Muhokama yakunida qonun senatorlar tomonidan ma'qullandi.

Bundan tashqari, Senatning qirq to'qqizinchi yalpi majlisida "O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 248-moddasiga qo'shimchalar kiritish haqida"gi qonun ko'rib chiqildi.

Ta'kidlanganidek, keyingi yillarda ichki ishlar organlarida xotin-qizlar va bolalarning huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ta'minlash, ularning hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilish, sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish, ularning ma'naviy hamda jismoniy rivojlantirishga ko'maklashish borasida tizimli ishlar yo'lga qo'yildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining hamda Hukumatining tegishli qarorlari bilan ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'linmalarida voyaga yetmaganlar masalalari bo'yicha inspektor-psixolog va xotin-qizlar masalalari bo'yicha inspektor lavozimlari joriy etildi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, ichki ishlar organlarining voyaga yetmaganlar masalalari bo'yicha inspektor-psixologlarida zarur vakolatlar mavjud emasligi voyaga yetmaganlar bilan bog'liq huquqbuzarliklar profilaktikasi yuzasidan o'z vaqtida chora-tadbirlar ko'rilishiga to'sqinlik qilmoqda.

Shu bilan birga, tazyiq va zo'rovonlikdan jabrlangan xotin-qizlarning

davlat tomonidan himoya qilinishini ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar samaradorligini yanada oshirish maqsadida himoya orderi talablarining bajarilishini nazorat qilish yuzasidan ichki ishlar organlari xotin-qizlar masalalari bo'yicha inspektorlarning mas'uliyatini kuchaytirish talab etiladi.

Mazkur qonun bilan Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 248-moddasiga bolalarni tarbiyalash va ularga ta'lim berish bo'yicha majburiyatlarini bajarmaganlikda, jamoat joylarida tamaki yoki alkalog mahsulotini iste'mol qilganlikda, shuningdek, voyaga yetmagan shaxsni g'ayriijtimoiy xatti-harakatlarga jalb qilganlikda aybdor shaxslarni ma'muriy javobgarlikka tortish uchun ichki ishlar organlarining voyaga yetmaganlar masalalari bo'yicha inspektor-psixologlariga zarur vakolatlar berilinishi nazarda tutuvchi qo'shimchalar



Akmal MUHAMMADOV olgan surat.

kiritilmoqda.

Bundan tashqari, ichki ishlar organlarining xotin-qizlar masalalari bo'yicha inspektorlariga tazyiq o'tkazgan va (yoki) zo'rovonlik sodir etgan yoxud ularni sodir etishga moyil bo'lgan shaxs tomonidan himoya orderi talablarini bajarmaganlik kabi ma'muriy huquqbuzarliklarni rasmiylashtirish vakolatlari berilmoqda.

Senatorlar fikricha, ushbu qonun ichki ishlar organlarining voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasiga, xotin-qizlar va bolalarning huquqlari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilishga doir faoliyatni samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Qonun senatorlar tomonidan ma'qullandi.

Shuningdek, Senatning navbatdagi yalpi majlisida "Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish yanada rivojlantirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi qonun ko'rib chiqildi.

Ta'kidlanganidek, so'nggi yillarda mamlakatimizda energiya barqarorligini ta'minlash, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejavochi texnologiyalarni joriy etish, sohani davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish borasida izchil islohotlar amalga oshirilmoqda.

Hozirda mamlakatimizda qayta tiklanuvchi energiya manbalarining elektr energiyasini ishlab chiqarish umumiy hajmini kamida 40 foizga olib chiqish maqsad qilingan.

Bu borada O'zbekiston 2030-yilga qadar qayta tiklanuvchi energiya manbalarini quvvatini 27 gigavattga yetkazib, elektr energiyasini ishlab chiqarish umumiy hajmini kamida 40 foizga olib chiqish maqsad qilingan.

Bu har yili 25 milliard kub metr tabiiy gaz tejash, atmosferaga zararli tashlamalarni 34 million tonnaga qisqartirish imkonini beradi.

Albatta, belgilangan ko'rsatkichlarga erishish uchun amaldagi qonunlarda ayrim normalarni qayta ko'rib chiqish taqozo etiladi.

Yuqorida keltirilgan zarurata asosan "Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish to'g'risida"gi Qonunga "yashil energiya" sertifikatlarini berish va muomalaga kiritishga, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashga taalluqli qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritilmoqda.

Quvvati 300 kVt va undan yuqori bo'lgan qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanigan holda ishlab chiqariladigan elektr energiyasini yagona

elektr energetikasi tizimiga ulash faqat ushbu manbalar maxsus vakolatli davlat organida o'rxatdan o'tkazilganidan keyin amalga oshirilishi nazarda tutilmoqda.

Shuningdek, qonun bilan Soliq kodeksiga qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishga asoslangan generatsiya obyektlarining "yashil energiya" sertifikatlarini savdosidan tushgan daromadlarini foyda solig'idan ozod qilishga doir o'zgartirish kiritilmoqda.

Senatorlar mazkur qonun ijtimoiy va uy-joy kommunal sohalarda, iqtisodiyot tarmoqlarida qayta tiklanuvchi energiya manbalarini keng joriy etishga, energiya samaradorligini oshirish orqali respublika hududlaridagi energiya taqchilligini bartaraf etishga hamda investorlar uchun qulay sharoitlarni yaratishga va rag'batlantirish mexanizmlarini belgilashga xizmat qilinishi ta'kidladilar.

olingunicha tovarlarni chiqarib yuborishga ruxsat berilmoqda.

Olib chiqiladigan tovarlarga nisbatan to'xtatib turish chorasini ko'rish mumkinligi bo'yicha norma kiritilmoqda. Bu amaliyot tovarlar eksportini amalga oshiruvchi milliy ishlab chiqaruvchilarga qulayliklar beradi. Xususan, bu o'zi ishlab chiqargan tovarlarning konfraqat nusxalarini xorijga eksport qilishning oldini oladi, chet davlatlarda milliy brendlarimiz obro'sini oshiradi, halol raqobat muhitini o'zganing brendini o'g'irlamaslik) ta'minlaydi.

Senatorlarning ta'kidlashicha, mazkur qonun milliy qonunchilik xalqaro standartlarga muvofiqlashtirilishini ta'minlashga, shu jumladan, iqtisodiyotda teng raqobat uchun shart-sharoitlar yaratishga va chet el investitsiyalarini keng jalb qilishga xizmat qiladi.

Qonun senatorlar tomonidan ma'qullandi.

Shuningdek, yalpi majlisda "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga O'zbekiston Respublikasi milliy qonunchiligini Jahon savdo tashkiloti bitimlariga muvofiqlashtirishni nazarda tutuvchi o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun ko'rib chiqildi.

Qonunda intellektual mulk, reklama va davlat boji bilan bog'liq bo'lgan milliy qonunchilikning qator normalarini Jahon savdo tashkilotining talablariga uyg'unlashtirish maqsadida "Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to'g'risida"gi, "Tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari va tovar kelib chiqqan joy nomlari to'g'risida"gi, "Reklama to'g'risida"gi, "Dori vositalari va farmatsevtika faoliyati to'g'risida"gi va "Davlat boji to'g'risida"gi qonunlarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishi nazarda tutilgan.

Xususan, "Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to'g'risida"gi Qonunga kiritilayotgan o'zgartirish yillar davomida sanoat ishlab chiqarishga joriy qilnamagan ixtirolar yoki foydali modellar amaliyotga joriy qilinishini ta'minlashga, yangi turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarishga va bozorni to'ldirishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, "Reklama to'g'risida"gi Qonun Jahon savdo tashkilotining Xizmatlar savdosi bo'yicha bosh bitimida nazarda tutilgan me'yorlar bilan o'zaro muvofiqlashtirilib, erkin raqobat muhitining yaratilishi ko'zda tutilgan.

Qonunga kiritilayotgan o'zgartirish va qo'shimchalarga asosan chet elda ishlab chiqarilgan pivo, tabiiy va ko'pkiladigan vino, reklamaga qilish yuzasidan cheklov bekor qilinib, bu bilan bozorda raqobat muhiti yuzaga kelishiga zamin yaratilmoqda.

"Dori vositalari va farmatsevtika faoliyati to'g'risida"gi Qonunga ham Jahon savdo tashkiloti bitimlaridan kelib chiqib, qo'shimcha me'yorlar kiritilayotgan bo'lib, unga ko'ra farmatsevtika sohasiga klinik tadqiqotlardan oldingi va klinik tadqiqotlar natijalari bo'yicha olingan ma'lumotlarni samarali himoya qilish mexanizmini joriy qilish orqali original dori vositalari ishlab chiqaruvchilarning huquqiy himoya qilinmoqda.

"Davlat boji to'g'risida"gi Qonunga xorijiy investitsiyali hamda mahalliy korxonalar bir xilda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishga qaratilgan o'zgartirishlar kiritilmoqda. Ya'ni chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalarni davlat o'rxatidan o'tkazganlik uchun davlat boji stavkasi bazaviy hisoblash miqdorigin 10 baravaridan 1 barobarigacha tushirilmoqda.

Qonunda ixtirolar, foydali modellar, sanoat namunalari huquqiy muhofaza qilish uchun patent berishga, rasmiy ekspertiza o'tkazishga va ma'lumotlarni e'lon qilishga talabnoma berish uchun davlat boji koridorlari intellektual mulkning savdo jihatlarini bo'yicha JST bitimi talablariga uyg'unlashtirilmoqda.

Senatorlarning fikricha, mazkur qonunning qabul qilinishi milliy qonunchilikni Jahon savdo tashkiloti bitimlari talablariga muvofiqlashtirish orqali O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lish jarayonining jadallashishiga hamda intellektual mulk obyektlarining himoya qilinishini ta'minlashga, O'zbekiston Respublikasi va xorijiy investorlarga bir xil shart-sharoitlar hamda teng raqobat muhiti yaratilishiga xizmat qiladi.

Muhokamadan so'ng senatorlar ushbu qonunning dolzarbligi va zarurligini e'tiborga olib, uni ma'qulladilar.

Shu bilan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining qirq to'qqizinchi yalpi majlisining birinchi ish kuni yakunlandi.

**O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Axborot xizmati.**

## DOLZARB MASALALAR TAHLILDAN O'TKAZILDI

Kecha o'z ishini boshlagan Oliy Majlis Senati qirq to'qqizinchi yalpi majlisining dastlabki kuni davomida bir qator dolzarb masalalar, jumladan, qonunlar chuqur tahlildan o'tkazildi.

Qayd etilganidek, mazkur qonunlar shiddatli davr talablari asosida ishlab chiqilgan. Senatorlar ulardan ayrimlarining mazmun-mohiyati hamda islohotlarning hozirgi bosqichdagi ahamiyati xususida quyidagicha fikr bildirdi.

## Munosabat

## Milliy qonunchilik Jahon savdo tashkiloti talablari uyg'unlashtirilmoqda

Erkin GADOYEV,

Oliy Majlis Senatining Budget va Iqtisodiy islohotlar masalalari qo'mitasi raisi:

Sir emas, mamlakatimizda Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish jarayonini tezlashtirishga qaratilgan izchil chora-tadbirlar ko'rilmoqda.

Senatorlar ma'qullagan "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga O'zbekiston Respublikasi milliy qonunchiligi Jahon savdo tashkiloti bitimlariga muvofiqshartlash nazarda tutuvchi o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun ana shu maqsadga xizmat qiladi.

Qonunga binoan intellektual mulk, reklama va davlat boji bilan bog'liq milliy qonunchilikning qator normalarini Jahon savdo tashkilotining talablariga uyg'unlashtirish maqsadida ayrim qonunlar o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilmoqda. Masalan, "Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to'g'risida"gi Qonunga kiritilayotgan o'zgartirish yillar davomida ishlab chiqarishga joriy qilinmagan ixtirolarni yoki foydali modellarni amaliyotga keng tatbiq etish, yangi turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish va bozorni to'ldirishda huquqiy asos vazifasini o'taydi.

"Davlat boji to'g'risida"gi Qonunga kiritilayotgan yangilikka binoan, chet el sarmoyasi ishtirokidagi korxonalarni davlat ro'yxatidan o'tkazganlik uchun davlat boji stavkasi bazaviy hisoblash miqdorining 10 baravaridan 1 barobarigacha tushirilmoqda.

Qonunda ixtirolar, foydali modellar, sanoat namunalarining huquqiy muhofazasi uchun

patent berishga, rasmiy ekspertiza o'tkazishga va ma'lumotlarni e'lon qilishga talabnom berish uchun davlat bojlari miqdorlari Intellektual mulkning savdo jihatlari bo'yicha JST bitimi talablariga uyg'unlashtirilmoqda.

Bu qonun O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lish jarayonini tezlashtirish hamda mahalliy va xorijiy investorlar uchun bir xil shart-sharoit va teng raqobat muhiti yaratish imkonini beradi.

## Jamoat tartibini saqlash va fuqarolar xavfsizligini ta'minlashda qo'l keladi

Farhod BOQIYEV,

Oliy Majlis Senatining Axborot siyosati va davlat organlarida ochiqlikni ta'minlash masalalari qo'mitasi raisi o'rinbosari:

O'zbekistonda olib borilayotgan islohotlar silsilasida fuqarolar huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilish, shaxs, jamoat va davlat xavfsizligini ta'minlash, shuningdek, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish alohida o'rin egallaydi.

Negaki, bugungi tekzor va tahdidli davrim o'zi huquqni muhofaza qiluvchi organlar oldiga yangi vazifalarni qo'yimoqda va ushbu organlarning zimmasiga yuklatilgan vazifalarning tekzor va samarali iro etilishiga xizmat qiladigan huquqiy asosni yaratishni taqozo etmoqda.

Senatorlar ma'qullagan "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga jinoyatchilikka qarshi kurashish bo'yicha faoliyatning huquqiy asoslarini takomillashtirishga qaratilgan qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi qonun bilan qator hujjatlarga ayrim o'zgartirishlar kiritilmoqda.

Xususan, "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi Qonunga jinoyatlarning holatlari, ularni sodir

etgan shaxslarni aniqlash va qidirish, jazoni o'tashdan bo'yin tovlayotgan yoki bedarak yo'qolgan shaxslarni qidirish maqsadida ommaviy axborot vositalari imkoniyatidan bepul foydalanishga doir ichki ishlar organlari huquqlarini aniqlashtirish nazarda tutuvchi o'zgartirish kiritilmoqda. "Ma'muriy qamoqni o'tash tartibi to'g'risida"gi Qonunga esa ma'muriy qamoqqa olingan shaxslarni qabul qilish va saqlash uchun mo'ljallangan muassasada tekzor-qidiruv faoliyatini amalga oshirish mumkinligini belgilovchi qo'shimcha kiritilayotganini aytish zarur.

Umuman, bu qonun jamoat tartibini saqlash, fuqarolar xavfsizligini ishonchli ta'minlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashishda qo'l keladi.

## Javobgarlik yengillashtirilmoqda

Shuhrat CHO'LLIYEV,

Oliy Majlis Senatining Sud-huquq masalalari va korruptsiyaga qarshi kurashish qo'mitasi raisi o'rinbosari:

Keyingi olti-yetti yil davomida boshqa sohalarda bo'lgani kabi sud-huquq tuzimida ham ko'lamli ishlar amalga oshirilib, muayyan natijalarga erishilgan barchaga ma'lum. Shu maqsadda insonparvarlik, adolatparvarlik g'oyalarga asoslangan qonunlar qabul qilinib, hayotga tatbiq etilmoqda.

Yalpi majlisda ko'rilgan "Ayrim toifadagi jinoyat qilmishlar uchun javobgarlik liberalashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga hamda O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi qonun mohiyatiga ham ana shu tamoyil singdirilgan.

Gap shundaki, u bilan Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga uchuvchisiz uchadigan apparatlarni, ularning butlovchi va ehtiyot qismlarini qonunga xilof ravishda olib kirish, o'tkazish, olish, saqlash yoki ularidan foydalanish bilan bog'liq ma'muriy javobgarlik nazarda tutuvchi yangi norma kiritilib, bu boradagi javobgarlik yengillashtirilmoqda. Ya'ni qonunga xilof ravishda harakatlarni sodir etgan shaxs, agar u uchuvchisiz uchadigan apparatlarni, ularning

butlovchi va ehtiyot qismlarini o'z ixtiyori bilan topshirsa, javobgarlikdan ozod qilinadi.

Muhimi shundaki, bu qilmishni birinchi marotaba sodir etgan shaxslar uchun jinoyi javobgarlik emas, balki ma'muriy javobgarlik belgilash mumkin bo'ladi.

## Yangi amaliyot joriy etiladi

Tolibjon MADUMAROV,

Oliy Majlis Senatining Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo'mitasi raisi o'rinbosari:

Ma'lumki, yurtimizda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishni yengillashtirish va rag'batlantirish maqsadida sohaga oid qator tartibotlar tanqidiy qayta ko'rib chiqilib, eskirgan, zamon talabiga javob bermaydigan byurokratik to'siq va g'ovlar bekor qilinmoqda. Natijada ishlabonlik muhiti yaxshilanib, tadbirkorlik subyektlari va xususiy investorlar uchun keng imkoniyatlar yaratilayotir.

Shu sa'y-harakatlarga qaramay, qonunchiligimizni xalqaro normalarga uyg'unlashtirish orqali tashqi savdoni yanada liberalashtirish zarurati borligini aytish zarur.

Yalpi majlisda ma'qullagan "O'zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksiga bojxona tartib-taomillari yanada takomillashtirishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun ana shu masala yechimiga, ya'ni sohaga yangi amaliyotni joriy etishga yo'naltirilgani bilan diqqatga sazovor.

Mazkur qonun bilan bojxona hududi reeksport bojxona rejimiga joylashtirilgan tovarlarni olib chiqish bo'yicha aniq muddatlar hamda reeksportga olib chiqilmagan tovarlarning saqlash joylari belgilanmoqda. Bir necha bor bojxona ombori bojxona rejimiga joylashtirilganda yoki boshqa shaxsga o'tkazilganda bojxona ombori bojxona rejimining umumiy amal qilish muddati 3 yildan oshmasligi bo'yicha aniqlashtiruvchi norma bilan to'ldirilayotgani e'tiborga molik. Qolaversa, endilikda tovarlarni bojxona hududida qayta ishlash texnologik jarayoni to'g'risidagi hujjat kichik turdagi tashkilotlardan emas, faqatgina yirik davlat ulushi bo'lgan tashkilotlardan talab etiladi.

Aytish joizki, bu yengillik tadbirkorlarga qayta ishlash rejimidan samarali foydalanishda qo'l keladi.

"Xalq so'zi".

## FRAKSIYALAR HAYOTI

## O'zLiDeP



Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish sohasidagi normalariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishi taklif etilmoqda.

O'zLiDeP fraksiyasi a'zosi To'liqin Karimovning fikricha, amaliyotda ma'muriy tartibda javobgarlikka tortilgan shaxslarning sodir etgan huquqbuzarligi bir xil turda bo'lsa-da, belgilangan jarima miqdorining har xil ekanligi fuqarolarning haqli e'tiroziga sabab bo'lmoqda. "Kodeksda huquqbuzarlikning har bir turi uchun muayyan miqdordagi jarima jazosini va bu jarima miqdorini belgilashga vakolatlari shaxslar kimlar ekanligini aniq qilib mustahkamlab qo'yish zarur", dedi xalq vakili.

Quyidagi palataga kiritilgan qonun loyihasi bilan ma'muriy jazolar miqdorini kamaytirish, ularni bir xil ko'rinishga keltirish, ma'muriy huquqbuzarliklarning xavfli darajasidan kelib chiqqan holda belgilash, ma'muriy ishning ko'rib chiqilishida elektron axborot texnologiyalaridan unumli foydalanish orqali aholiga yengillik yaratish ko'zda tutilmoqda.

## "Milliy tiklanish" DP

Qonunchilik palatasidagi "Milliy tiklanish" DP fraksiyasining yaqinda bo'lib o'tgan yig'ilishida Alisher Qodirov parlamentda qanday qilib partiyaniyning salohiyatini oshirish kerakligi haqida gapirdi.

Fraktsiya rahbarining fikricha, partiyaniyning tuman-shaharlarda roli jadallashsa odamlarning partiyaga xayrixohligi oshadi. "Barcha saylovchilarning ishonchini oqlashimiz kerak. Quyidagi bo'g'inlarimiz harakatlarini birlashtirib, qo'shimcha ravishda partiyamizning maqsad va vazifalarini targ'ib qilsa, manfaatlarimizni himoya etsa, tumanda, qolaversa, parlamentda partiyamiz kuchli bo'ladi va xalq biz uchun ovoz beradi, bu esa bizning g'oyalirimizga to'liq javob beradigan qonunlarni qabul qilishda imkoniyatlarimizni kengaytiradi", dedi u.

## "Adolat" SDP

O'zbekiston Respublikasida sud hokimiyati qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatdan, siyosiy partiyalardan, fuqarolik jamiyatining boshqa institutlaridan mustaqil holda ish yuritiladi hamda sudlar muayyan ishlar bo'yicha hisobdor bo'lmasligiga oid konstitutsiyaviy normalar mavjud.

"Adolat" SDP fraksiyasi a'zosi Muhammadjon Valiyev shu haqda to'xtalib, amaliyotda ushbu normalarga muvofiq kelmaydigan mexanizmlar ishlab turgani, xususan, hududiy sudlar raislari mahalliy Kengash deputatlariga hisobot berib kelgani ko'plab partiyadoshlarining haqli e'tiroziga sabab bo'layotganini ta'kidladi.

"Shu bois ushbu amaliyot bekor qilinishi nazarda tutilgan va bir guruh deputatlar tomonidan ishlab chiqilgan qonun loyihasini qo'llab-quvvatlayman. Zero, o'z faoliyatini mustaqil yuritib kelayotgan sudlar odil sudlovni ta'minlash yo'lida hech kimga hisob berishiga yo'l qo'ymasligimiz kerak", dedi deputat.

## O'zXDP

O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi hamda uning quyi palatadagi fraksiyasining banklar va ularning xizmatidagi foydalanuvchi fuqarolar o'rtasida vujudga kelayotgan muammolar va ularning yechimiga bag'ishlab o'tkazilgan yig'ilishida dolzarb masalalar ko'tarildi.

O'zXDP fraksiyasi a'zosi Anvarxon Temirov o'tgan yildan boshlab tadbirkorlarga uy-joy qurishi uchun bojxona imtiyozlari taqdim etilayotgan, bundan tashqari, ularga Markaziy bank tomonidan belgilangan foiz stavkalarida kredit ajratilayotganiga to'xtalib o'tdi. "Ammo uy-joy uchun ipoteka krediti olishga davlat banklariga borgan aholiga, oddiy ishchiga 18 foizlik stavka belgilanyapti, uni olish ham juda qiyin. Tijorat banklaridagi foiz stavkalari esa undan-da yuqori. Banklar faoliyatini muvofiqshartlab turuvchi Markaziy bank aholining uy-joyga ega bo'lish imkoniyatini yanada kengaytirish maqsadida ularga imtiyozli va qulay foiz stavkalarida ipoteka krediti ajratilishi masalasini qayta ko'rib chiqishi maqsadga muvofiq. Toki, imtiyozli kreditlardan nafaqat tadbirkorlar, balki oddiy ishchilarning ham foydalana olishi kerak", dedi deputat.

## O'zbekiston Ekologik partiyasi

Shu hafta o'rtasida o'tkazilgan quyi palataniy navbatdagi majlisida deputatlar taklifi bilan Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirining respublikada, shu jumladan, Toshkent shahrida atmosfera havosi ifloslanishining oldini olish borasida amalga oshirilayotgan ishlar holati to'g'risidagi axborotini ehitish haqida qaror qabul qilindi.

"Eshituvni nomiga o'tkazish niyatimiz yo'q. Ekopartiya fraksiyasi hamda Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish masalalari qo'mitasi hamkorligida joylarda tegishli o'rganishlar olib borilaypti. Biz, parlament a'zolari atrof-muhit muhofazasiga qonun ijodkorligi yo'nalisidagi faoliyatimiz bilan bevosita hissa qo'shishimiz mumkin. Ya'ni atrof-muhit muhofazasini kuchaytirish uchun muayyan qonunlariga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishi zarurati yuzaga kelsa, bu bo'yicha taklifimizni Qonunchilik palatasiga kiritish asosiy maqsadimiz hisoblanadi", dedi fraksiya rahbari Xayrusiddin G'afforov.

"Xalq so'zi".

## IQTISODIY BARQARORLIK — AHOLI FAROVONLIGI KAFOLATI

Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 16-yanvar kuni 2024-yilda makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash bo'yicha ustuvor vazifalar muhokamasi yuzasidan o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida mamlakatimizda bu borada o'tgan yili amalga oshirilgan ishlar chuqur tahlil qilindi.

Ayni paytda parlament vakillari belgilab berilgan ustuvor vazifalarning hozirgi islohotlar jarayonida muhim ahamiyatga egaligi, ularning bajarilishini ta'minlashda yanada faol bo'lish lozimligi masalalariga alohida e'tibor qaratmoqda.

Bu bo'yicha Qonunchilik palatasi deputatlari o'z munosabatlarini bildirdi.

## Nuqtai nazar

Mavluda ADHAMJONOVA,

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati:

Davlatimiz rahbari videoselektor yig'ilishida makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash bo'yicha ustuvor vazifalarni belgilab berdi.

Darhaqiqat, yirik sanoat tarmoqlarining soliq yuki kamaytirilgan bo'lsa-da, ko'p tarmoqlar davlatga tushumini ta'minlash o'rniiga xarajatini oshiryapti. Shu ma'noda, bundan buyon sanoatda qo'llab-quvvatlash mexanizmlari birinchi g'alda yuqori qo'shilgan qiymat yaratadigan va bozori bor mahsulotlar uchun berilishi aytiladi.

Iqtisodiy kompleks mas'ullariga 2024-yilda qo'shilgan qiymatni 45 foizdan oshirish, tanrarni 15 foizga kamaytirish, umuman, sanoatda 7 foiz o'sishni ta'minlash bo'yicha korxonabay chora-tadbirlari tasdiqlab, amalga oshirish topshirildi. Ushbu chora-tadbirlar shunchaki taxminiy raqamlar va xulosalarga tayanib emas, aniq tahlillar asosida ishlab chiqildi.

Iqtisodiyotning barqaror rivojlanishida budget ijrosi samaradorligini ta'minlash g'oyatda muhimdir. 2024-yilda budget taqchilligini 4 foizdan oshirmaslik belgilangan. 2023-yilda ko'plab davlat korxonalarida dividend va soliq to'lovlari bo'yicha budgetga 8 trn. so'm tushumini ta'minlay olmagani. Misol uchun, Sirdaryo va Jizzax viloyatlarida soliq tushumlari 20 foiz o'sgan bo'lsa, Xorazm, Buxoro va Qashqadaryo viloyatlarida bu ko'rsatkich 7 foizga ham yetmagan.

Bunday holatning kelib chiqishiga sabab bo'layotgan omillardan biri, bu — yuridik shaxs

maqomidagi 18 mingta ovqatlanish korxonasidan atigi 2 300 tasi QQS to'lovchi hisoblanishidir. Sababi ular tovar aylanmasini 1 mlrd. so'mdan oshirmaslik uchun bitta oshxonaga 3-4 tadan firma ochgan holda faoliyat ko'rsatib kelmoqda.

Endilikda yuqoridagi holatlarni o'z vaqtida bartaraf etish uchun mahalladagi soliqchi, tuman soliq boshliqlari va o'rinbosarlarida ko'proq vaqt va imkoniyat bo'ldi. Boisi 40 mingta budget tashkiloti bilan ishlash vazifasi tumanidan Soliq qo'mitasida yangi tashkil qilinadigan Budget tashkilotlari inspeksiya bo'limi o'tkazildi. Ushbu inspeksiya to'liq raqamlashgan bo'ldi va G'aznachilik elektron tizimiga integratsiyalashtirildi. Budgetga soliq tushumlarini o'z vaqtida ta'minlash maqsadida qo'mita qoshida Soliq qarzini undirish inspeksiya bo'limi asos solinishi ham ayni muddaodir. Chunki uning Majburiy jori byurosida mavjud vakolatlar beriladi. Buning hisobiga, tumanlardagi qo'shimcha 200 nafar soliqchilarni mahallabay ishlash tizimiga o'tkazish imkoniy paydo bo'ldi.

Umuman aytganda, yig'ilishda belgilab berilgan vazifalarning o'z vaqtida va samarali amalga oshirilishi nafaqat mamlakatimiz iqtisodiyotining barqaror rivojlanishiga, qolaversa, xalqimiz turmush farovonligi yuksalishiga, yangi ish o'rinlari yaratilishiga, ish haqi, pensiya, stipendiya va nafaqalar miqdori ko'paytirilishiga xizmat qiladi.

Zumrad BEKATOVA,

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati:

Bugungi kunda tibbiyot sohasiga budgetdan ajratilayotgan

mablag'lar 2016-yildagiga nisbatan 5 barobar, shifoxonalar va tez tibbiy yordam punktlarini dori-darmon, tibbiy buyumlar bilan ta'minlashga ajratilayotgan mablag'lar 12 barobar ko'paytirilgani qvonaroli hol, albatta. Ammo masalaning yana bir tomoni borki, bu borada o'z vaqtida zarur choralar ko'rish chekitirib bo'lmas vazifalardan biri hisoblanadi. Ya'ni sog'liqni saqlash sohasiga ajratilayotgan mablag'ning har bir so'midan samarali va maqsadli foydalanish kerak.

Davlatimiz rahbari raisligida bo'lib o'tgan videoselektor yig'ilishida budget xarajatlarining samaradorligi masalasi ham alohida ko'rib chiqildi. Bu bezir emas. Chunki o'tgan yili budgetdan 1,2 trn. so'mlik noqonuniy xarajat hamda 200 mlrd. so'mlik kamomad va o'g'irliklarga yo'l qo'yilgan. Sog'liqni saqlash, qishloq xo'jaligi sohasidagi dasturlarga ajratilgan mablag'lar esa to'liq ishtatilmagan.

Bu borada iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Davlat moliyaviy nazorati inspeksiya Bosh prokuratura huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti o'tkazilishi ayni muddao bo'ldi. Bu, oz navbatida, budget mablag'larining maqsadli sarflanishini ta'minlashga turki beradi.

Ma'lumki, sog'liqni saqlash tizimida joriy etilayotgan davlat tibbiy sug'urtasi mexanizmlari aholining kafolatlangan va sifatli tibbiy yordam olish imkoniyatlarini kengaytirish barobarida, sohaga ajratilayotgan budget mablag'laridan foydalanish samaradorligini oshirishga xizmat qiladigan tizim hisoblanadi.

Dastlab Sirdaryo viloyatidagi tibbiyot muassasalarida qo'llangan davlat tibbiy sug'urtasi bosqichma-bosqich respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazlariga hamda 20 dan

ziyod xususiy tibbiyot tashkilotlariga tatbiq etildi. Joriy yildan esa bu mexanizm bosqichma-bosqich barcha hududda yo'lga qo'yilishi rejalashtirilgan.

Hozirgi kunga qadar amalda bo'lgan tizimda sohaga ajratilayotgan mablag'lar qancha bemor davolanaganidan qat'i nazar, tibbiyot muassasalariga yo'naltirilgan bo'lsa, sug'urtas mexanizmlari asosida bu mablag'lar bemorga ko'rsatilgan tibbiy yordam hajmi hamda uning sarflanigan dori vositalari va tibbiy buyumlar miqdoridan kelib chiqib yo'naltirilmoqda.

Ya'ni milliy sog'liqni saqlash tizimiga joriy etilgan tibbiy sug'urtasni moliyalashtirishning samarali mexanizmi bo'lib, uning doirasida har bir fuqaroning salomatligini kafolatlangan paket asosida Davlat budgeti mablag'lar hisobidan sug'urtas qilinmoqda. Chunki sug'urtas tizimida tibbiy xizmatlar uchun to'lovlar natijaga asoslangan moliyalashtirish usullari orqali amalga oshiriladi, davlat tomonidan kafolatlangan tibbiy yordam doirasida tibbiy xizmatlar strategik xaridi yo'lga qo'yiladi.

Natijada sog'liqni saqlash tizimidagi samarasiz xarajatlar ulushi bosqichma-bosqich qisqartiriladi, aholining tibbiy yordam uchun to'g'ridan-to'g'ri to'lovlari darajasini kamaytirishga erishiladi. Asosiy, sog'liqni saqlash tizimiga ajratilayotgan mablag'lar doirasida birlamchi tibbiy-sanitariya yordami ulushini oshirish orqali kasalliklar profilaktikasi kuchaytirilib, tibbiyot muassasalarining moliyaviy mustaqilligini ta'minlash va tibbiyot xodimlarini moddiy rag'batlantirish mexanizmlari kengaytiriladi.

Bugungi kunda sog'liqni saqlash sohasiga davlat tibbiy sug'urtasi mexanizmlarini to'liq joriy etish bo'yicha barcha chora ko'rilmoqda. Yig'ilishda belgilab berilgan vazifalar ijrosi esa aholining sifatli tibbiy yordamdan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, aholiga davlat tomonidan kafolatlangan tibbiy yordam ko'rsatishga xususiy tibbiyot tashkilotlarini jalb qilish holda bu yo'nalisidagi raqobat muhitini rivojlantirish imkoniyatini yaratadi.

"Xalq so'zi".

## MILLIY QADRIYATLAR RUHIDA TARBIIYA TOPGAN YETUK KADRLAR SUV BILAN HAVODEK ZARUR

Shu bilan birga, yoshlarni milliy g'oya va Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash, navqiron avlod vakillarining yurtimizdagi islohotlar jarayonidagi ishtirokini oshirish, ular o'z intellektual va ijodiy salohiyatini yo'qobga chiqarishi uchun sharoitlar yaratish muhimligi haqida ham so'z yuritildi.

Ma'naviy-ma'rifiy tadbir, shuningdek, "Jadid" gazetasining taqdimoti ham bo'lib o'tdi. Ta'kidlanganidek, so'nggi yillarda yurtimizda Prezidentimiz tomonidan jadid ma'rifatparvar bobolarimizning Vatani tarqiyoti, millat ravnaqi yo'lidagi sa'y-harakatlarni yanada keng taqdiq qilishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Davlatimiz rahbarining ezu tashabbusi bilan chop etilayotgan "Jadid" gazetasida Vatani va xalq manfaatlari yo'lida jon fido qilgan millat yodlari — jadid bobolarimiz hayoti va faoliyatini keng targ'ib etishda o'ziga xos tafakkur maydoni bo'lib xizmat qiladi.

Davlatimiz rahbarining mamlakatimiz o'z taraqqiyotining yangi, yuksak bosqichga kirayotgan hozirgi paytda bizga jadid bobolarimiz kabi G'arb ilm-fan yutuqlari bilan birga, milliy qadriyatlar ruhida tarbiya topgan yetuk kadrlar suv bilan havodek zarurligi haqidagi so'zlari shunchaki tarixiy ma'lumot emas, balki har birimiz uchun jiddiy chaqiriq ekanini teran anglashimiz shart. "Jadid" gazetasini ana shunday jasoratli ziyolilar uchun asosiy minbarga aylantirishga bel bog'laganimiz va bu borada barcha jonkuyar, fidoyi yurtdoshlarimizni ijodiy hamkorlikka chorlaymiz, — dedi "Jadid" gazetasini bosh muharriri Iqbol Mirzaaliyev.

Tadbirida O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiyi, "Mehnat shuhrati" ordeni sohibi Munavvira Abdullayeva so'z olib, bugungi kunda butun dunyoda yuz berayotgan globallashuv jarayonida mamlakatimizda milliy madaniyatni yanada rivojlantirish bo'yicha olib borilayotgan ishlar, ziyolilarning elu yurt o'ldidagi vazifalari haqida fikr-mulohaza bildirdi.

Ma'naviy-ma'rifiy tadbir yakunida madaniyat, ta'lim, san'at sohaslaridagi yutuqlar, mavjud muammolar, ularning yechimlari xususida fikr almashildi.

"Xalq so'zi".

Xalq so'zi  
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:  
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi  
Qonunchilik palatasi Kengashi  
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi  
Senati Kengashi

## Bosh muharrir O'tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi — 229. Buyurtma G 142.15 808 nusxada bosildi. Hajmi — 2 taqob. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yublab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



TELEFONLAR:

Devonxona 71-259-74-51; Kotibxona 71-259-74-53;  
e'lonlar 71-259-74-55.



"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxonalar manzili:  
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni — 23.16 Topshirildi — 00.15 1 2 3 4 5 6

MANZILIMIZ:  
100066,  
Toshkent shahri,  
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.  
Navbachi muharrir A. Soyibnazarov.  
Musahhah S. Islomov.